

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK: 811.512.133:81-373**

**TEMIROVA NAZIRA AKBOYEVNA**

**O‘ZBEK TILIDA IRONIYA VA UNING IFODA VOSITALARI**

**Mutaxassislik: 70220301 - Lingvistka ( o‘zbek tili )**  
**magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.f.d. (PhD) A.SHUKUROV**

**TERMIZ-2023**

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil, 24-yanvar dagi № 2 - T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.


Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d.(PhD) A. Shukurov

Kafedra mudiri:



f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev

Magistratura bo'limi boshlig'i:



(PhD) A.B. Narbayev

**70230101- Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Temirova Nazira Akboyevnaning “O‘zbek tilida ironiya va uning ifoda vositalari ” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

**ANNOTATSIYASI**

**Tadqiqot obyekti:** O‘zbek adabiyotidagi yozuvchilarning hajviy yo‘nalishda yozilgan komedik asarlari hamda og‘zaki nutqdagi turli xil dialogik suhbatlarning ironik tomonlarini o‘rganish ushbu mavzuning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Ishning maqsadi:** Odamlar ironiyadan auditoriyani to‘xtatib, ular aytayotgan narsa haqida o‘ylashlari yoki asosiy g‘oyani ta’kidlashlari mumkin. Tomoshabinning aytilgan va normal yoki kutilgan narsa o‘rtasidagi farqni payqashdagi roli ironiyadan muvaffaqiyatli foydalanish uchun muhimdir. Tilshunoslikda ironiyadan foydalanish ko‘pincha xabarni to‘g‘ridan to‘g‘ri bayon qilishdan ko‘ra aniqroq yetkazib beradi. Ushbu magistrlik ishida ironiyaning boshqa ko‘chimlardan farqli jihatlari, ironiyani yuzaga chiqaruvchi vositalar va matndagi asosiy roli haqida yoritib beriladi.

**Tadqiqot metodlari:** Tadqiqotda tavsifiy metod, struktur metod, differensial-semantik, qiyosiy-tarixiy metod va bevosita ishtirokchilar metodiga tayanib bajarildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- ishda ironiyaning kognitiv strukturasi, uning milliy mental xoslanganligi va bevosita olamning milliy xoslangan lisoniy manzarasi muammolari xususida to‘xtalib o‘tiladi.

- o‘zbek tilshunosligining bugungi holati, ya’ni uning til substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqiga o‘tayotganligi ironiyani maxsus tadqiq qilishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

- kontekstda ironiyaning nutqiy qo‘llanish masalasi o‘rganiladi.

- tadqiqotda matn tashkil qiluvchi ironiya birlashtiruvchi fenomen sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi.

- ishda matnni tashkil etish, aniqrog‘i, intertekst muammosi doirasida ironiyaning xususiyati tahlil qilinadi.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqotdagi materiallardan o‘rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” hamda “Matnning lingvistik tahlili” fanlarini o‘qitishda keng foydalanish mumkin.

**Qo‘llanish sohasi:** Tilshunoslikning leksikologiya, frazeologiya bo‘limlarida qo‘llaniladi.

## ANNOTATION

### **"Irony and its means of expression in the Uzbek language" master's dissertation on the topic**

**Object of research:** The object of research of this topic is to study the comedic works of writers in Uzbek literature written in a comic direction, as well as the ironic aspects of various dialogic conversations in oral speech.

**Purpose:** People can use irony to make the audience stop and think about what they are saying or to emphasize a main idea. The audience's role in noticing the difference between what is said and what is normal or expected is important to the successful use of irony. In linguistics, the use of irony often conveys a message more clearly than a direct statement. In this master's thesis, the features of irony that are different from other metaphors, the tools that create irony and the main role of irony in the text will be explained.

**Research methods:** The research was carried out based on the descriptive method, structural method, differential-semantic, comparative-historical method and the method of direct participants.

The results obtained and their novelty:

- the work focuses on the cognitive structure of irony, its national mental characteristics and the problems of the national linguistic landscape of the world.

- the current state of Uzbek linguistics, i.e., its transition to the research of the speech realization of the substantial possibilities of the language, puts the special research of irony on the agenda as an urgent task.

- the issue of rhetorical use of irony is studied in the context.

- in the research, it is emphasized that the irony forming the text appears as a unifying phenomenon.

- the nature of irony is analyzed within the framework of the problem of text organization, more precisely, intertext.

**Practical significance:** The materials of the research are used for teaching the subjects "Current Uzbek literary language" and "Linguistic analysis of the text" to students studying Uzbek philology in secondary schools, academic lyceums, vocational and higher educational institutions. widely available.

**Field of application:** It is used in the departments of lexicology and phraseology of linguistics.

## MUNDARIJA

<b>ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....</b>	<b>1</b>
<b>KIRISH. IRONIYA FILOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....</b>	<b>6</b>
<b>I BOB. IRONIYA, UNING YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI VA O‘RGANILISHI.....</b>	
1.1. Ironiyaning o‘rganilishi.....	10
1.2. Ironiyaning yondosh hodisalarga munosabati.....	25
Bob bo‘yicha xulosalar.....	36
<b>II BOB. IRONIYA IFODALOVCHI VOSITALAR VA ULARNING TASNIFI.....</b>	
2.1. Ironiya ifodalovchi lingvistik vositalar haqida. ....	38
2.2. Ironiya ifodalovchi lingvistik vositalar tasnifi. ....	51
Bob bo‘yicha xulosalar.....	53
<b>III BOB. IRONIYANING MATN HOSIL QILISH XUSUSIYATI.....</b>	
3.1. Ironiyaning matndagi roli va intertekstual xususiyati.....	54
3.2. Ironiyaning uslubiyatdagi roli (so‘zlashuv uslubi misolida).....	60
Bob bo‘yicha xulosalar.....	66
<b>XULOSA.....</b>	<b>68</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>70</b>

## KIRISH

**Magistrlik dissertatsiyasining asoslanishi va uning dolzarbligi:** Ironiya serqirra hodisa, unga turli tomondan turli maqsad va vazifalarni nazarda tutgan holda yondashish lozim. Shu boisdan ironiya ba'zan badiiy, ba'zan lisoniy, ba'zan madaniy, ba'zan falsafiy, ba'zan kognitiv va h. fenomenlar sifatida qaraladi. U qanday fenomen sifatida qaralmasin, baribir bu fenomenning bir qirrasini boshqasidan mutlaqo uzib olgan holda tekshirish, tadqiq qilish mumkin emas. Ironiyaning biror jihatini boshqa jihatiz tasavvur qilinishi, boshqalarini mutlaq inkor qilish asosida tadqiq predmeti sifatida olinishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, bunda ironiyaga ham dialektikaning "narsaning serqirraligi" tamoyili asosida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq. Ironiyaning asl va haqiqiy ontologik mohiyati bu qirralar haqidagi xulosalarni umumlashtirish asosida tiklanadi. Sohalar bo'yicha aniqlangan jihatlar esa nisbiy asosiy bo'lmagan mohiyatlar bo'lib, ular o'zidan quyi umumlashtirishlarga nisbatan mohiyat, yuqori va mutlaq mohiyatga nisbatan shunchaki umumiyliklar yoki hodisalar sifatida namoyon bo'ladi.

Ironiya, avvalo, so'z san'atidir. So'z uning lisoniy shakllanganligiga ishora qilsa, san'at undan foydalanishdagi mahoratning orginalligini ifodalaydi. Ironiyani filologik aspektda tekshirish uni lisoniy shakl va badiiy mazmunning yaxlitligi sifatida qarash demakdir. Bu uni tekshirishda ikki muhim tamoyilga tayanish zaruratini taqozo qiladi:

- a) shakllanganlik;
- b) obrazlilik.

Ana shu ikki jihatdan birortasining mavjud emasligi ironiyaning filologik aspektda qaralishiga monelik qiladi.

Ushbu magistrlik ishida ironiyaning paydo bo'lish tarixi, jahon adabiyotidagi tutgan o'rni va uning o'zbek tilshunosligidan farqli va o'xshash jihatlari hamda badiiy, lisoniy, madaniy, falsafiy va kognitiv tomonlarini ochib berish maqsad qilingan.

**Tadqiqot obyekti va pretmeti:** O‘zbek adabiyotidagi yozuvchilarning hajviy yo‘nalishda yozilgan komedik asarlari hamda og‘zaki nutqdagi turli xil dialogik suhbatlarning ironik tomonlarini o‘rganish ushbu mavzuning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Magistrlik dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari:** Ironiya inson tafakkuri mahsulidir. Zero, inson borliqni anglar, unga nisbatan subyektiv yaratuvchilik hissi va istagi bilan munosabatda bo‘lar ekan, bu munosabat tasdiq, inkor hamda rivojlantirish tushunchalari bilan bog‘lanib ketadi. Bunda ironiya ushbu uch asosiy taraqqiyot unsurining biri – inkorni shunchaki aks ettirmasdan, yangidan yaratish niyati bilan uyg‘unlashgan hissiy munosabatga omixtashlashtirgan holda ifodalash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Hissiy munosabat esa istehzo psixik kategoriyasi bilan bog‘lanadi.

Hissiy munosabat ironiya tarzida yuzaga chiqar ekan, bunda, odatda, munosabatning pardalanishi, “nojiddiy” tus berilishi bo‘rttiriladi. Shu boisdan ironiya bir qarashda o‘tkir muammoli holatni ifodalamayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ammo butun bir o‘tkir ijtimoiy muammo, illat yengil kulgi, masxara ostida bo‘rtib turadi. Ironiya bamisoli aysberg, uning o‘ndan to‘qqiz qismi yashiringan, oddiy fahmiy ko‘zdan bekingan, o‘z sir-asrorini kuchli idrok izmiga shaylagan holda mudroq “kayfiyat”da bo‘ladi. Shuning uchun buyuk idrok sohiblari, mutafakkirlar ironiyani insoniyat tafakkuri mahsuli sifatida qarab, undan kuchli qurol sifatida qo‘llashgan.

Ironiya hissiy munosabatlar ifodasiga xoslanganligi tufayli asosan, badiiy, publitsistik va so‘zlashuv uslublarida keng qo‘llanadi. Ilmiy va rasmiy uslublar uning iste‘mol doirasi cheklangan sohalari hisoblanadi. Umuman olganda, ilmiy-ommabop janrlarda ironiyaning u yoki bu darajadagi qo‘llanishlarini kuzatish mumkin. Bu qo‘llanishlarni mutlaqlik tusida ko‘rmasdan, oraliq holatlarga xos hodisalar sifatida baholash lozim bo‘ladi.

Odamlar ironiyadan auditoriyani to‘xtatib, ular aytayotgan narsa haqida o‘ylashlari yoki asosiy g‘oyani ta’kidlashlari mumkin. Tomoshabinning aytilgan va normal yoki kutilgan narsa o‘rtasidagi farqni payqashdagi roli ironiyadan



muvaffaqiyatli foydalanish uchun muhimdir. Tilshunoslikda ironiyadan foydalanish ko‘pincha xabarni to‘g‘ridan to‘g‘ri bayon qilishdan ko‘ra aniqroq yetkazib beradi.

Adabiy asarlarda, she‘riyatda ironiya ko‘pincha o‘quvchini aytilayotgan gaplar haqida ko‘proq o‘ylashga undash va o‘quvchi nazarda tutilayotgan narsalar haqida chuqurroq o‘ylashga undash uchun hazil tarzida qo‘llanilishi mumkin. Odamlar e‘tiborni jalb qilish va ma‘noni chuqurroq rivojlantirish uchun ko‘pincha istehzodan foydalanadilar. Ironiya matn yoki nutqqa “yaqinlik” va istehzo tushunilganda qoniqish hissini, yozuvchi va o‘quvchi, so‘zlovchi va qabul qiluvchi o‘rtasida o‘ziga xos ko‘z qisib qo‘yishni yaratadi.

Ushbu magistrlik ishida ironiyaning boshqa ko‘chimlardan farqli jihatlari, ironiyani yuzaga chiqaruvchi vositalar va matndagi asosiy roli haqida yoritib beriladi.

**Magistrlik tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- Ishda ironiyaning kognitiv strukturasi, uning milliy mental xoslanganligi va bevosita olamning milliy xoslangan lisoniy manzarasi muammolari xususida to‘xtalib o‘tiladi.

- O‘zbek tilshunosligining bugungi holati, ya‘ni uning til substantzial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqiga o‘tayotganligi ironiyani maxsus tadqiq qilishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

- kontekstda ironiyaning nutqiy qo‘llanish masalasi o‘rganiladi.

- Tadqiqotda matn tashkil qiluvchi ironiya birlashtiruvchi fenomen sifatida namoyon bo‘lishi ta‘kidlanadi.

- Ishda matnni tashkil etish, aniqrog‘i, intertekst muammosi doirasida ironiyaning xususiyati tahlil qilinadi.

**Tadqiqodning asosiy masalalari va farazlari:** O‘zbek tilshunosligida, xususan, tilshunoslik nazariyasida ironiyaning ayrim tavsifiy belgilari qayd etilgani holda, uning badiiy uslub sifatidagi qiymati, poetik fenomen sifatidagi xususiyati ochilmagan. Ayniqsa, uning badiiy san‘atni vujudga keltirishdagi roli,

soʻz sanʼati taraqqiyotidagi oʻrni, badiiy ong va tafakkur mahsuli sifatidagi mohiyati oʻz tadqiqini kutmoqda.

Dunyo hamjamiyatidagi xalqaro munosabatlarning takomillashuvi, murakkablashuvi, chigallashuvining muqarrar jarayon ekanligi ularni yorituvchi ommaviy axborot vositalari rolining ham oshishini taqozo qiladi. Ayniqsa, axborot uslubining oʻziga xos yoʻsinda shakllanib, rivojlanayotganligi, siyosiy munosabatlarda xalqaro munosabat va muloqotning noziklashib borishi undan taʼsirlanuvchi va unga taʼsir qiluvchi publitsistik uslubning takomillashuvi va mukammallashuvini ham taqozo qiladi. Shu boisdan bugungi kunda siyosiy publitsistikada ironiya, intertekstuallik va boshqa til oʻyinlari qatorida yangi-yangi qirralarini namoyon qilib, oʻziga xos fenomen sifatida ayricha sotsial mohiyat kasb etmoqda.

**Tadqiqod mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi (tahlili):** Tadqiqotda tilshunoslik fanida tan olingan yondashuv va usullarning qoʻllanilganligi, normativ-huquqiy hujjatlar, oʻzbek tili izohli lugʻati, shuningdek, gazeta, jurnal, toʻplamlarda eʼlon qilingan ilmiy maqola, referat va monagrafiyalarga asoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Umumiy tilshunoslik nazariyasi namoyandalari (Y.D.Deshiriyev, V.Kolesov, V.Humboldt, G.Grays, S.Levinson, F.Sossyur) va oʻzbek tilshunoslari (M.Hakimova, D.Ashurova, M.Mirtojiyev, M.Yoʻldoshev, Ibragimova, Sh.Safarov, S.Moʻminov, Sh.Iskandarova, M.Sulaymonov, Q.Rasulov)ning qarashlari, tilning milliy mentalitetni saqlash va voqelantirish vazifasini tadqiq qilish konsepsiyasidir.

**Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi:** Tadqiqotning metodologik asosi mustaqillik mafkurasi, koʻchim va uning turlari, shuningdek, tadqiqod usullari tavsifiy metod, struktur metod, differensial-semantik, qiyosiy-tarixiy metod va bevosita ishtirokchilar metodiga tayanib bajarildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Filologik fenomen sifatidagi ironiyaga “shakldan mazmunga” yoki “mazmundan shaklga” tamoyili asosida munosabatda bo‘lish, yondashish mumkin. Shunga ko‘ra:

- a) lingvistik yondashuv;
  - b) poetik yondashuv
- farqlanadi.

Lingvistik yondashuvda ironiya ma’no, semantik mohiyat sifatida qaralib, “shakl–ma’no–vazifa” uchligida kuzatuv amaliyoti shakldan boshlanib, ma’no orqali vazifaga o‘tadi. Bunda ma’no va vazifa dialektikadagi mazmun kategoriyasi tarkibida qaraladi. Zero, ma’no va vazifa yaxlitligidan iborat bo‘lmagan mundarijani qidirish ma’qul emas.

Poetik yondashuv amaliy natijadan kelib chiqqan holda badiiy vositalarga munosabatda bo‘ladi. Bunda yuqoridagi uchlik “vazifa–ma’no–shakl” ko‘rinishida bo‘lib, talqinda asosiy e’tibor badiiy vazifa, badiiy vazifa keltirib chiqqan badiiy “samara”ga qaratiladi. Qanday shaklda bo‘lmasin, yuqori qiymatli badiiy “samara”ni qo‘lga kiritish so‘z san’atining maqsadidir. Albatta, bunda so‘z u mansub bo‘lgan til tushunchasi bilan metonimik bog‘lanishga ega. Umuman olganda, ironiyaga lingvistik yondashuvda asosiy diqqat imkoniyatga, poetik yondashuvda esa voqelikka qaratiladi. Ironiya voqelikka tanqidiy munosabatni ifodalovchi fenomendir.

Ironiya kesatish, piching kabi hodisalar bilan bir mavzuviy guruhni tashkil qiladi. Biroq ular orasida ironiya o‘zining mantiqiy qiymati, qo‘llanish sferasi, madaniy mohiyati bilan alohida ajralib turadi. U yuksak aqliy va idrokiy jarayon mahsuli ekanligi, funksional “tosh”i vazminligi bilan xarakterlanadi.

Ironiyaning sistema tashkil qilish vazifasi uning matnni bog‘lash vazifasini bajarishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu boisdan uning intertekstual sifati fikriy izchillik va uzviylik tamoyillari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ironiyaning bu belgisi uning tadrijiy jarayon, o‘tmish va bugun o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita, ma’lum ma’noda tarixiy fenomen ekanligini ko‘rsatadi.

Albatta, ironiya inson tafakkuri mahsuli sifatida turli daraja va ko‘rinishlarda yuzaga chiqadi. Xususan, uning borliqqa subyektiv munosabatni ifodalashi subyektning intellektual salohiyati va esda saqlash qobiliyati bilan bog‘liqdir. Shuning uchun yozma adabiyotda ironiyaning roli, so‘z o‘yinlari sirasida tutgan o‘rni badiiyatni ta‘minlovchi vosita sifatida alohida e‘tiborga molik. Badiiy niyat va tafakkur uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘luvchi fenomen sifatida ironiya hamisha xalq donishmandligi mevasi, buyuk mutafakkirlar zakosi mahsuli sifatida badiyat salmog‘ini ta‘minlab keladi. Zero, nafaqat ayrim badiiy fragmentlar, balki butun yaxlit matnlarning, hatto yirik asarlarning ironiya asosiga qurilganligi fikrimizning dalilidir. O‘zbek adabiyotida xalq masallari, matallari, “Zarbulmasal” kabi kosa tagida nimkosa mazmunidagi yirik polotnolar, g‘arb adabiyoti rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan “Don Kixot” kabi asarlar ironiya san’atining yuksak namunalaridir. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham ironiyaning yuksak namunalari bo‘lgan badiiy asarlarni ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin”, “O‘g‘ri”, Said Ahmadning “Qoplon”, “Xandon pista”, “Bir o‘pichning bahosi”, yana Sharof Boshbekov dramalari, Anvar Obidjonning she‘rlarida ham uchratamiz.

Kishilik jamiyati taraqqiyotidagi tub ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yangilanishlar, avvalo, badiiy adabiyotda o‘z aksini topganligi kabi, butun omma har doim ironiyaviy ifodalarga ko‘proq moyillik sezadi. Albatta, kishida buni bir qonuniyat sifatida e‘tirof etish istagi kuchayadi. Masalan, eskilik va yangilik kurashi, ularning murossasiz ziddiyatining go‘yoki “murossasoz” ifodalovchisi sifatida ironiya faollashadi. O‘z-o‘zidan bu “murossasoz”lik madaniy murossasizlik, inson tafakkur vositasida ifoda etgan, yuksak saviyadagi isyondir. O‘tgan asrning ibtidosida keng quloq yoyib rivojlangan satira va yumor janri asosida ironiya yotganligi ham fikrimizning dalildir. Abdulla Qodiriyning madaniy “murossasoz”ligi oqibati o‘laroq vujudga kelgan “feleton”lari ana shu ulkan satirik qurol vazifasini o‘tagan ironiya zaminida qurilgan.

**Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi:** Magistrlik dissertatsiya ishi kirish, adabiyotlar tahlili, uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan va ilovalardan iborat.

# **I BOB. IRONIYA, UNING YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI VA O‘RGANILISHI**

## **1.1. Ironiyaning taraqqiyot va o‘rganilish tarixiga bir nazar**

Ironiya aslida shakl va mazmunning zid munosabatiga asoslangan hodisa yoki usul. So‘zlovchi borliqni kuzatar ekan, unga o‘zining va o‘zgalarning ayon munosabati kuzatilayotgan obyekt ifodasini o‘zgacha, bilvosita, mohiyatga zid qurishni taqozo qiladi. Go‘yo kuzatilayotgan narsa boshqa bo‘lib, aytilayotgan narsaga aylanma yo‘llarsiz mos kelayotgandek tasavvur uyg‘otsa-da, so‘zlovchi fikr va ifoda mos emasligiga nolisoniy yoki pragmatik asoslarda ishora qiladi. Bu, ikkinchi tomondan, kulgili narsani jiddiydek qabul qilishga yolg‘ondakam “intilish” istagi bilan bog‘lanib, shubhali ko‘tarinkilik va skeptik kayfiyat hosil qiladi.

Ironiyaning taraqqiyoti va o‘rganilish bosqichlarini farqlash lozim. Ularning bir-biriga zich munosabati har birini alohida-alohida va bir-biriga bog‘lagan holda qarashni taqozo qiladi.

Ironiyashunoslar tomonidan uning taraqqiyotidagi quyidagi muhim bosqichlar farqlanishini ko‘rish mumkin:

1. Suqrot ironiyasi.
2. Romantik ironiya.
3. Postmodernistik ironiya.

Garchi o‘zi bu atamani qo‘llamagan, unga nisbatan o‘z hayotiy va falsafiy munosabatini aniq ifodalamagan bo‘lsa-da, ilmiy jamoatchilik orasida Suqrot ironiyasi atamasi mashhur. Bu atamaning mohiyati ko‘rilgan, ko‘ringan va aslyat orasidagi ziddiyat mavjudligi asosida idrok etiladi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘lishi juda ko‘plab manbalarda qayd etilgan. Ironiya, birinchidan, Suqrotning o‘z hamsuhbatlarini yolg‘ondakam maqtashi va alqashida namoyon bo‘ladi (asl holat bilan Suqrot ifodasi (fikri emas) orasidagi qarama-qarshilik). Ikkinchidan, Suqrotning o‘zini tahqirlashi va o‘zgalar oldida o‘z nafsoniyatini yerga urishida ham ironiya namoyon bo‘ladi. Holbuki, hamsuhbatlari orasida

hech kim Suqrotchalik obro‘ va sha’nga ega emas edi. Aslida o‘zini tahqirlash ham uning asl maqsadiga nomuvofiq bo‘lib, voqelik va ifoda orasida zidlik mavjud. Uchinchidan, Suqrot ironiyasi o‘zni zohiran bilmagandek tutish, aslida haqiqiy donish va hikmatga intilish oqibatidir. Zero, Suqrot o‘zi ta’kidlaganidek, u hech narsa bilmasligini biladi, boshqalar esa hatto shuni ham bilmaydi. U hamsuhbatlarini ironiya asosida haqiqatni anglashga o‘rgatdi, o‘z xatti-harakatlarini o‘zlari tanqidiy baholay olishlariga erishishga urindi, shunday yo‘l tutdiki, kishi o‘z xatolarini o‘zlari anglay olsin. Ironiya uning uchun maqsadga aylanib qolmadi, balki kishilarni axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Zero, o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy munosabat, uni ironiya vositasida namoyon qilish kishiga o‘zining kundalik hayoti, tajribalari va bilimlari asosida o‘z-o‘ziga hisob berish, yuksak axloqiy mezonlar asosida o‘z axloqini “o‘lchash”ga, insonning o‘z qalbini haqiqat qo‘rg‘oniga aylantirishga xizmat qiladi. Suqrotning ironiyalari ana shunga xizmat qilganligi bilan xarakterlidir. Suqrot ironiyalari obyektiv voqelikni o‘zgartirish vositasiga aylandi va alloma ana shu an’ana rivojiga turtki berdi. Bu an’ana rivojlandi va ma’lum davrga kelib romantik ironiya shakliga kirdi.

Romantik ironiya ijod va tafakkurda romantik tendentsiyalar shakllanishi va kuchayishi jarayoni bilan bog‘lanadi. 1790-yillarda Germaniyada vujudga kelgan romantizm oqimi utilitarizm (axloqning asosi foyda olish, manfaat ko‘rish deb biluvchi ta’limot, idealistik falsafiy oqim) va shaxslararo farqlarni yo‘qotish hamda ularni uyg‘unlashtirishga, sarhadsiz ozodlikka intilish, mukammallashuv va yangilanish ishtiyoqi, shaxsiy va fuqarolik mustaqilligi pafosi sifatida namoyon bo‘ldi.

Avvalo, romantik ironiya olmon faylasufi Fridrix Shlegel (1772-1829) tomonidan Platon dialoglari, Fixte g‘oyalari asosida batafsil va atroflicha ko‘rib chiqilgan. U ironiyani “nosistematik falsafiy mushohada”, borliqqa ironiyaviy munosabat sifatidagi “fragmentar falsafiy fikr mahsuli”, “borliqqa tanqidiy munosabat” fenomeni sifatida tushunib, uni o‘zida manfaatlar qarama-qarshiligini go‘yoki so‘ndiruvchi yashirin imkoniyat, ziddiyatlardan ustun

turuvchi va uni inkor etuvchi hodisa sifatida qaraydi. F.Shlegel ta'kidicha, falsafiy fenomen sifatidagi ironiyaning qimmatini uning o'zida mantiqiy ziddiyatlilik xususiyatini aks ettirishidir. Shunisi qiziqki, ironiyaviy fikr idrokiy fikrga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda ratsional fikrda qarama-qarshilik kuzatilmasligi e'tiborga olinadi. Shu boisdan idrok hokim bo'lgan joyda ironiya bo'lmaydi degan tezisni to'g'ri tushunmoq lozim.

F.Shlegelning ayrim fikrlarini keltiramiz. Unga ko'ra, ironiya ruhi, zakovat – bu “kimyoviy ruh”, ya'ni bu ruh ichki qarama-qarshilik asosida rivoj topadi. Munosabat, niyat va ifoda orasidagi ziddiyat ironiyaviy ruhning doyasidir<sup>1</sup>. Uningcha, ironiyaviy munosabat nafaqat ichki qarama-qarshiliklari nuqtayi nazaridan qaraladigan hodisa, balki bir yoqlamalilikni umumlashtiruvchi, universallashtiruvchi, birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi hamdir. Shuningdek, o'tkirlik va ironiya dialektikasi shundaki, muayyanlik (ziddiyatsizlik) va qarama-qarshilik shunchaki yonma-yon qo'yilmaydi. Qarama-qarshi tomonlar o'tkir ziddiyat asosida bog'lanadi, ana shu bog'lanishda chuqur yashiringan haqiqatga ishora qiladi, bu haqiqat esa ana shu qarama-qarshilik kurashidan tug'iladi. Ironiya qarama-qarshiliklarni o'zida mujassamlashtirgan holda kuchli sintez vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Tilda ziddiyatli tomonlarni ironiyachalik yaxlitlaydigan, shu bilan birga, ularning kurashini aks ettiradigan vosita yoki figurani topish qiyin. Qarama-qarshilik, ziddiyat asosida subyektiv bilish mahsuli bo'lgan kognitiv struktura shakllanadi. Bu holatning F.Shlegel ta'limotida gnoseologik akt sifatida ham, kognitiv hodisa sifatida ham kuzatilganligi qayd etilmagan.

Ironiyaviy ruh hamisha notinchligi bilan ajralib turadi. Doimiy dinamiklik notinchlik bilan uyg'un idrok etiladi va haqiqatda ham shunday. Albatta, bu notinchlikni F.Shlegel idrok etganidek, tartibsizlik sifatida ham tushunish yaramaydi. Chunki tartibsizlik umumlashtirish, sintezlashtirish, universallashtirishga zid. “Romantiklar tomonidan ironiya nazariyasining subyektning olamdagi pozitsiyasini xarakterlovchi, asoslovchi tamoyil sifatida

---

<sup>1</sup>Mannikov I. Ironiya kak snyatiye totalitarnogo soznaniya.



rivojlantirilishi fransuz inqilobi g'oyalarining ozodlik harakati, ozod insoniy ruhning g'alabasiga so'ngsiz ishonch tantanasi uchun xizmat qildi. Universal yangi madaniyatning tashuvchisi sifatida serqirra, yaxlit butunlikdagi, jami borliq uchun ayon mavjudlik – ozod shaxsdir. Shunday qilib, ironiyaviy subyekt Shlegel tomonidan o'zini va borliqni erkin ijod qiluvchi, oliymaqom ozod shaxs sifatida tushunildi. Ammo inson ruhining ozodligi tantanasi borliqqa ironiyaviy munosabatning bir qirrasinigina aks ettiradi. Ikkinchi tomoni shundaki, insonning ma'naviy hayoti hodisasi sifatida ironiya uning XVIII asr sotsial muhitidagi holatining o'ziga xosligini aks ettiradi<sup>2</sup>.

Demak, romantik tushunilgan, talqin qilingan va rivojlantirilgan ironiyaning qarama-qarshiliklarni birlashtirish, sintezlashtirish xossasini bo'rttirish romantik mafkuraning oddiy urinishlari sifatida qolib ketdi, ko'zlangan natijani bermadi, deyish mumkin. Umuman olganda, uni "jiddiy bo'lmagan" dialektika, subyektning erkin, xayoliy o'yini sifatida tushunish hissi saqlanib qolaverdi<sup>3</sup>.

Ironiyaning postmodernistik shakli o'tgan asrning oxirgi va yangi asrning ilk o'n yilligida madaniy muhitning o'ziga xos xususiyat kasb etganligi, uning intensiv va ziddiyatli rivoji bilan bog'liq. "Ironiyali fikr zamonaviy tafakkurning atributiv belgisi va umumiy tendentsiyasiga aylanmoqda"<sup>4</sup>. Ko'hna hodisa sifatidagi ironiyaning mutlaqo yangi mohiyat, navqironlik kasb etayotganligini alohida uqtirmoq lozim. U o'zining funksional qiymati va sferasini o'tmishdagi shaklidan butkul yangiladi. Zero, yangi zamon (fanning tili bilan aytganda, postmodernizm davri) o'zga tamoyillar asosida kechmoqda. Achchiq bo'lsa-da aytish lozimki, individualizm hamda xudbinlikning yangi xususiyatlar bilan "boyiyotganligi", qismning butunga nisbatan ustuvorlashganligi, "o'zing uchun o'l yetim" tamoyili postmodernistik turmush tarzining shioriga aylanayotganligi, hayotning o'yinga mengzalayotganligi va uni jiddiy qabul qilishga urinish

---

<sup>2</sup> Ivanov M. Ironiya – uxmylka postmoderna

<sup>3</sup> Ivanov M. Ironiya – uxmylka postmoderna

<sup>4</sup> Farxitdinova O.M. Ironiya: problema opredeleniya i rol v filosofskom poznanii: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. –Ekaterinburg, 2004. – C.

bema'niligi haqidagi qarashlarning hukmronlikka intilayotganligi postmodernizmni lo'nda tavsiflovchi xossalardir<sup>5</sup>. "Yumor madaniyati bilan yo'g'rilgan postindustrial tipdagi jamiyat ironiyaviy tafakkur amaliyotiga asoslangan. Zamonaviy sotsial munosabatlarga kirishish va unda ishtirok etish uchun individdan kinoviy pozitsiya egallash talab qilinadi. Pirovardida, ironiya quvvati u yoki bu darajada, u yoki bu shaklda mavjud sotsial qat'iyatlarni tanqid qilishga yo'naltirilgan, shu boisdan ironiyaning mohiyati sotsial mezonlar asosida ochiladi"<sup>6</sup>.

Jamiyatdagi axloqiy tayanchlar ironiyaning quyushqoni sifatida amal qiladi. Albatta, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi me'yor chizig'idan kechadi. Ijtimoiy axloq, jamiyatning ma'naviy-axloqiy mezonlari va tutumlari ironiyaning taraqqiyot uchun xizmat qilishini ta'minlaydi. Ironiyaga tamadduniy talab qo'yadi. Ironiyaning nafsoniyat va inson shaxsi sha'ni bilan "o'ynashi"ga axloqiy qadriyatlar befarq bo'la olmaydi. Axloqiy qadriyatlar esa hududiy, etnik, milliy-ma'naviy, mental, diniy, jo'g'rofiy-tabiiy asoslarda shakllanganligi bois ironiyaning umuminsoniy va milliy-mental jihatlarini farqlab munosabatda bo'lish lozim. Shuningdek, milliy tafakkur tarzining ham murakkabligi ironiyaga munosabatni belgilaydi. Bu, albatta, milliy zakovatning turli darajadali bilan emas, balki turli asosdali bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun kishilarning madaniy an'analari, ideallari va e'tiqodlarini, milliy iftixorlarini ironiyalashtirishning foydadan xoli emasligiga qo'shib bo'lmaydi<sup>7</sup>. Ammo ironiyaga posmodernistik munosabat bunday qarashlarni qabul qilmaydi. Unga munosabat qay darajada salbiy bo'lishidan qat'i nazar u sotsial hayotga chuqur kirib bormoqda, o'zini to'la ma'nodagi madaniy muloqot fenomeni sifatida namoyon qilishga tirishmoqda. Zero, u har doim ham tanqidchilarninggina ko'zi bilan anglanadigan salbiy oqibatlarni keltirib

---

<sup>5</sup> Qarang: *Filosofiya. Ensiklopedicheskiy slovar // pod.red. A.A.Ivana. –M.: Gardariki, 2004.*

<sup>6</sup> Farxitdinova O.M. *Ironiya: problema opredeleniya i rol v filosofskom poznanii: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. –Ekaterinburg, 2004. – C.*

<sup>7</sup> Farxitdinova O.M. *Ironiya: problema opredeleniya i rol v filosofskom poznanii: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. –Ekaterinburg, 2004. – C.7*

chiqarmayotganligiga axborot ommasining ishonchi komil. Albatta, ironiyani tanqid qiluvchilarning asoslarida yakka mafkuraviylikka suyanuvchi tuzum tayanchlari bo'rtib turganligini har doim ham inkor qilib bo'lmaydi. Ironiya boshqa nuqtayi nazardan munosabatda bo'lish orqali sxematizm va dogmatizmdan uzilishni taqozo qiladi. U o'zaro bir-biriga ta'sir qiluvchi tenglashgan mavqedagi dialogdan farqli ravishdagi metapozitsiya va yana shuki, u kuzatiladi va kuzatuvchiga ta'sir qilmaydi. Dialoglilik nototalitar ongning xususiyati, unda har xil nuqtayi nazar to'qnashadi, ularning muloqoti amalga oshiriladi. Totalitarlikda dialog taqiqlangan. Kishida ikki yo'ldan birini tanlash turadi: yo u o'z g'oyalariga muvofiqlashuvi, o'zining beaded mohiyatini belgilangan qoliplarga solishi lozim, yoki bu vakuumni buzib chiqishi zarur, natijada u ironiyada namoyon bo'ladi. Kishi hukmron nuqtayi nazardan chetlanganda va unga nojiddiy munosabatda bo'la boshlagan nuqtada muammo yechimga yuz tutadi. Voqelikdan ma'lum darajada tisarilish yuz berib, shu asosda totalitarlik inqirozga duchor bo'ladi<sup>8</sup>. Buni, masalan, sovet davrida Stalin tuzumi zamonida mafkuraga barcha butun borlig'i bilan jiddiy munosabatda bo'lishda ko'rish mumkin. Xrushchev davriga kelib, xalq ongi mavjud borliqdan tisarila boshladi va bunga imkon tug'ildi. Haqiqiy hayot va ideallarning nomuvofiqligi omma ongida mavjud tuzumga ironiyaviy munosabatni shakllantirdi. Shu zamonlarda har xil latifalar, yaratila boshladi, "norasmiy" shoirlar, qo'shiqchilar paydo bo'la boshladi. Ana shu kinoviy o'sish sho'ro rejimini qulatdi. Ironiya va yumordan hozirgi zamon siyosiy mojarolarda ham faol foydalaniladi.

Ta'kidlash lozimki, garchi ironiya mafkuraviylikdan xoli qilishda ma'lum darajada ijobiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, baribir salbiy asoslarga ega. Dialogga ana shu ma'noda ijobiy qarash kerak. Bunda inson javob kutadi, o'zini yangidan

---

<sup>8</sup>Языковые средства выражения иронии на материале норвежских публицистических текстов: Автореф.дисс....канд.филол.наук. – 200 . – с.

yaratishga tayyor turadi. Dialogda shunday iroda kuchi hukmronlik qiladiki, uni insonning o‘zi belgilaydi”<sup>9</sup>.

Postmodernistik ironiya haqida so‘z yuritgan A.S.Panarinning “Iskushenie globalizmom” asarida quyidagilarni o‘qiydiz: “Postmodernning eng e’tiborli paradokslaridan biri shuki, uning mondialistik elitasi bo‘lgan “dunyo fuqarosi” normal qarash, xulq va sog‘lom aqlga ega bo‘lgan normal jamiyatdan uzilgan yopiq sekstanik psixologiyaga ega. Postmodern sekstantlari o‘zlarini madaniy va axloqiy muhitdagi dunyo “qayta quruvchilari” tomonidan siqib chiqarilmagan ozod eksperimentatorlar hisoblaydilar. Ular–axloqiy muhitdagi “podpolechilar” bo‘lib, odatdagi insoniy axloqdan ozod bo‘lishdan zavqlanadilar”<sup>10</sup>. Postmodernistlar o‘z vazifalarini jamiyatni sog‘lomlashtirishdagi profilaktik ishlarda ko‘radilar. Eskirgan va o‘z umrini yashab bo‘lgan chayir mafkuraviy illatlarga barham berishda postmodernistlar o‘z hushyorligini ironiyaviy vositalar asosida namoyon qiladilar. Modernning antropologik to‘ntarishi kishilarni o‘ta aniqlikda ko‘rishga olib keldi. Tinimsiz soat millariga qarash, vaqtni maksimal chegaragacha siqish, qisqa vaqtda mo‘l samara ko‘rishga butun borlig‘i bilan intiluvchanlik va bunga erishish modern fuqaroning sifatiga aylangan edi. Postmodernistik shaxsda esa bu aks ko‘rinish kasb etdi. O‘tayotgan onning ta’sir kuchidan zavqlanish, har qadamda uchraydigan kuchlarimizni ambitsioz maqsadlar sari yo‘naltiradigan “finalizm”ning qutqusidan xalos bo‘lish, har xil loyihalar o‘rniga “o‘yinli mavjudlik”ni afzal ko‘rish postmodernist shaxs turmush tarzining mag‘zini tashkil etadi. Borliqdagi eskilik sifatida tuyuluvchi mavjud holatga ironiyaviy munosabat ushbu turmush tarzining o‘ziga aylanib qoldi va u ironiyaviy turmush tarzi maqomini egalladi. Loyihasizlik, istiqbolsizlik ruhi, kuchlarni bema’ni loyihalarga sarflamasdan ko‘ngilochar faoliyatga burish tamadduniy ironiya tusini oldi.

---

<sup>9</sup> Mannikov I. Ironiya kak snyatiye totalitarnogo soznaniya.

<sup>10</sup> Panarin A.S. Iskusheniye globalizmom.

Aytilganlar asosida ta'kidlash lozimki, ironiyaviy munosabat bugungi kunda ijtimoiy illatlarga qarshi kurashish vositasi bo'lish bilan birga ijtimoiy illatlarning tashuvchisi va rivojlantiruvchisiga ham aylanib bormoqda. Insoniyatni tanazzulga yetaklayotgan global illatlarning aynan ayrim guruhlar tomonidan ishlabchiqilayotganligi va diffuziya qonuniyati asosida uning qamrovi kengayib borayotganligi, ushbu illatlarning ijobiy tamadduniy hodisa sifatida qaralayotganligining o'ziyoq ironiyaviy sivilizatsiya dunyoviy tamaddunga hamrohlik qilayotganligini, ayrim hollarda bunyodkor tamaddunning tisarilayotganligiga amin bo'lish mumkin.

Ironiyani madaniy muhitda kuzatish uning jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda rivojlanayotganligiga, davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhiti uning oldiga muayyan vazifalar yuklayotganligiga, noziklashib borayotgan insoniy va xalqaro munosabatlar ironiyaning yangi tus olishiga zamin hozirayotganligiga amin bo'lish mumkin. Holbuki, komedial va yumoristik ruhdagi axborot manbalarining shakllanishi va taraqqiyoti ironiyaning keng qamrovli vosiga aylanib borayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalaridagi siyosiy diskurslarda hukm surayotgan deofitsializatsiya, deideologizatsiya, avtorizatsiya jarayoni hozirgi postmodernizm sharoitida zamonaviy madaniy ong xos bo'lgan yangi sotsio-madaniy tendentsiyalarni shakllantirmoqda. Bu esa gumanitar fanlar doirasida ushbu g'ayrioddiy qurolning shakllanish, ishlash va ta'sir mexanizmlarining alohida-alohida qirralarini tadqiq predmetiga aylantirish zaruratini tug'diradi. Xususan, tilning amaliy samarasini ta'minlash, uni bunyodkor kuchga aylantirish ehtiyoji mazkur "atom"ni neyrolingvistik aspektida o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda<sup>11</sup>. Zero, tilning magik

---

<sup>11</sup> Neyrolingvistika haqida qarang: Andreas, Steve & Charles Faulkner (Eds.) (1996). NLP: the new technology of achievement. New York, NY: HarperCollins. ISBN 0-688-14619-8; Andreas S., Folkner Ch. NLP. Новые технологии достижений успеха. — K.: Sofiya; M.: ID Gelios, 2001. ISBN 5-220-00392-5; Bandler, Richard & John Grinder (1975). The Structure of Magic I: A Book About Language and Therapy. Palo Alto, CA: Science & Behavior Books. ISBN 0-8314-0044-7; Bendlep P., Gpindep D. Struktura magii. — SPb.: Praym-Evroznak, 2004. Tom pervyy: ISBN 5-93878-151-5; Grinder, John & Richard Bandler (1975). The Structure of Magic II: A Book About Communication and

kuchini muloqot madaniyati samarasi uchun yoʻnaltirish zarurati ironiyaning fenomenal imkoniyatini teran tadqiq qilishning nechogʻlik dolzarb ekanligini koʻrsatadi. Jahon tilshunosligida “oʻtgan asr soʻngida bozor iqtisodiyotining jadal surʼatlar bilan rivojlanishi, zamonaviy axborot texnologiyalarining ommalashuvi, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarblashib, tilshunoslik ham amaliy vazifalariga – nutq samaradorligi tadqiqiga eʼtiborni kuchaytirdi. Natijada fanda sotsiolingvistika, etnosotsiolingvistika, lingvopragmatika, pragmalingvistika, pragmatika, psixolingvistika kabi nomlar bilan yuritiluvchi yangi tarmoqlari shakllandi. Bu yoʻnalishlarni oʻzida mujassamlashtirgan yangi davr tilshunosligi nutqqa insoniy faoliyat – fikr almashtirish va oʻzgalarga taʼsir koʻrsatish, bunyod qilishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashib, uning ixchamligi, samaradorligi va taʼsirchanligi, mantiqiyliqi tadqiqini birinchi oʻringa qoʻyadi. Xususan, bugungi kunda jahon tilshunosligida nutqning faoliyat sifatidagi qiymati hamda uning implikaturalari boʻlgan koʻchma va tag maʼnolarni, ochiq ifodalanmagan, lekin ifodalanishi soʻzlovchining maqsadi boʻlgan maʼlumot-axborotni aniqlash usullari ishlab chiqildi va u tezda ommalashib ulgurdi”<sup>12</sup>.

Oʻzbek amaliy tilshunosligining shakllanishi va uning davr talablariga mos rivojlanishi amaliy maqsadlarga muvofiq samara beradigan lisoniy mexanizmlarga alohida eʼtibor qaratishni taqozo qiladi. Bular sirasida katta ahamiyatga molik boʻlgan ironiya kontseptini yaxlit fenomen sifatida tadqiq qilish, ironiyashunoslikni yoʻlga qoʻyish kechiktirib boʻlmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

Ironiyaning amaliy rivojlanishiga muvofiq ravishda uning oʻrganilishi doirasini ikki yoʻnalishda kuzatish va baholash mumkin:

- a) ironiyaning dunyo fanida oʻrganilishi;
- b) ironiyaning oʻzbek tilshunosligida oʻrganilishi.

---

Change. Palo Alto, CA: Science & Behavior Books. ISBN 0-8314-0049-8; Bendlep P., Gpindep D. Struktura magii. — SPb.: Praym-Evroznak, 2004. Tom vtroy: ISBN 5-93878-152-3; Bandler, Richard

<sup>12</sup> Mengliyev B. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yoʻlida // Maʼrifat

Aytilganidek, ironiyaning har xil aspektlari juda ko'p tilshunoslik va boshqa fan yo'nalishlarining tadqiq obyektiga aylantirildi. Ayniqsa, lingvistika, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa kabi fanlarda ironiyani o'rganish jiddiy tus olganligini alohida ta'kidlash lozim.

Filologik nuqtayi nazardan badiiy-estetik kategoriya sifatida ironiyani Yu.B.Borev, V.M.Pivoev, I.Pasi, A.F.Losev, V.O.Pigulevskaya, B.G.Lukyanova tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim.

G'arb fanida ironiyaning estetik aspekti B.Al'mann, M.Dj.Blakvella, D.O.Navan tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan.

Ironiyaning estetik qiymatini tekshirish ko'pincha uning badiiy aspekti bilan uyg'unlashib ketgan holatlarni ham kuzatish mumkin. Bu, ayniqsa, N.Ya.Berkovskiy, L.I.Boldina, A.A.Sherbina, J.E.Fomicheva, E.S.Afnas'ev, G.N.Pospelov, V.Ya.Propp tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda sotsiolingvistik aspektda amalga oshirilgan T.Keyn, Dj.Sale, Dj.Tedeschi, psixolingvistik aspektda bajarilgan G.Klark, R.Gerrig, P.Rokvell, lingvostilistik aspektda bajarilgan M.A.Bagdasaryan, V.V.Ovsyannikov, N.K.Salixova tadqiqotlarini ham alohida ta'kidlash lozim.

Tilshunoslikning yangi paradigmalari shakllanishi bilan ironiyaning amaliy qirralari bilan qiziqish yanada kuchaydi. Ayniqsa, ironiyani nutq vaziyati va sharoiti bilan bog'lab tadqiq qilish keng tus olmoqda. Shu ma'noda pragmalingvistik tadqiqotlar doirasini kengaytirgan G.L.Prokofev, V.E.Jarov, T.A.Shishkin, D.Amant, A.Beredonner, R.L.Braun, D.S.Kaeyfer, Dj.Ostin, R.Tanaka ishlari alohida e'tiborga molik. Sof lingvistik aspektda bajarilgan S.I.Poxodni, G.G.Tremasova ishlari ironiyaning lisoniy va nutqiy xususiyatlari, ularning ifodalovchi vositalari masalasiga bag'ishlangan.

Ironiya bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarning umumiy sanog'idan tiyilgan holda ularning eng xarakterlilariga alohida sharh lozim bo'ladi.

Umuman olganda, ironiyaning ifodalovchi vositalari, matn hosil qilish xususiyatlari, pragmatik va kognitiv imkoniyatlari masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmoqli.

B.A.Gomleshkoning<sup>13</sup> fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasida Djon Golsuorsi badiiy matnlarida qo‘llangan ironiyaning ifodalovchi vositalari “Saga o Forsaytax” romani matni asosida tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tadqiqotchi an’anaviy va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ironiyaning maqomi va tutgan o‘rni, komik va hissiy-bahoviy tanqid vositalari kategoriyalari tarkibiy qismi sifatidagi xususiyatlarini tahlil qiladi. Uning kategorial mustaqilligi, komponentlari, ironiyaviy ma’noni reallashtiruvchi kontekstual vaziyat, ironiyaning lisoniy ifodalari tasnifi va tavsifi masalalari bilan shug‘ullanadi. Umuman olganda, ironiyaning umumiy va ayrim ideolektga xos xususiy jihatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Tadqiqot garchi ironiya ifodalovchi vositalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangandek tuyulsa-da, unda nutqiy qo‘llanish masalasi alohida diqqat-markazda turadi. Masalan, ishning birinchi bobi Djon Golsuorsining “Saga O Forsaytax” romani badiiy matnidagi ironiyaning pragmatik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Qolgan ikki bobda ironiyaning leksik sathdagi ko‘rinishlari, ironiyaviy ma’noning kontekstual shartlanganligi, ironiyaviy kontekst tushunchasi, va, shuningdek, ironiyani ifodalovchi vositalarning tasnifi va shu asosdagi tavsifi amalga oshiriladi.

Ironiyani ifodalovchi vositalar masalasiga bag‘ishlangan yana bir muhim tadqiqot sifatida uning “Языковые средства выражения иронии в художественных текстах” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini aytish mumkin. Ish uch bobdan iborat bo‘lib, unda ironiya fenomenining turli fan (lingvistika, filologiya, adabiyotshunoslik, estetika, filosofiya, semiotika,

---

<sup>13</sup>.Гомлешко Б.А. Языковые средства выражения иронии в художественных текстах Джона Голсуорси: лингвопрагматический аспект (на материале языка романа «Сага о Форсайтах»): Автореф.дисс....канд.филол.наук. –Майкоп, 2008. – 25 с.



psixologiya kabi) larda o'rganilish sferasi, publitsistik matnlarda voqelanish xususiyatlari va ironiya ifodalashning lisoniy vositalari haqida so'z boradi<sup>14</sup>.

Ironiyaning publitsistik matnlarda voqelanishi uning ko'proq tashviqiy tabiatga egaligi va shunday funktsiyani bajarishga xoslanganligini ko'rsatadi. Masalan, dissertatsiyaning "Ironiya va politicheskoy diskurse" deb nomlangan tadqiqotda ham uning publitsistik xususiyati tadqiq predmetiga aylantirilgan. Tadqiq materiali sifatida zamonaviy ommaviy axborot vositalarida chop etilgan yoki uzatilgan materiallar tanlangan. Tadqiqotning muhim qirrasini shundaki, unda ironiya zamonaviy madaniyatning "tayanch so'zlaridan biri sifatida qaraladi. Shu boisdan u nafaqat filologik muammo, balki kulturologik kontsept sifatida e'tiborga olinadi. Ironiya ifodalovchi vositalarning leksik-frazeologik vositalari maxsus bandda tahlil qilinadi. Zero, leksik-frazeologik sath birliklari ironiya ifodalovchi vositalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi.

Ishda matnni tashkil etish, aniqrog'i, intertekst muammosi doirasida ironiyaning xususiyati masalasi maxsus bag'ishlangan bobda tahlil qilinadi. Siyosiy diskursda ironiya ifodalaydigan vositalar sirasida nolisoniy vositalar tadqiqotchining diqqat markazida turadi. Xususan, ironiya ifodalovchi hajviy fotosurat va rasmlar, karikaturalar ham tahlil qilinadi.

Publitsistik diskursdagi ironiya haqidagi yana bir tadqiqotga tegishli. Tadqiqot manbai ironiya bo'lib, ironiyaning asosiy sifatlaridan bo'lgan modallik tadqiq predmeti sifatida tanlanadi. Modallik ironiyaning "yashash tarzi" sifatida qaraladi va modalliksiz ironiyaning bo'lishi mumkin emasligi asoslanadi. Shuningdek, asosiy e'tibor matnda ironiyaviy mazmunning shakllanishida lisoniy vositalarning o'ri va roli masalasiga qaratiladi va maxsus bobda ironiyaviy modallikning yuzaga chiqishida asosiy rol o'ynaydigan matniy vositalar tahlil qilinadi.

Tadqiqotchi ironiyaning kognitiv-tarixiy shartlanganligi va uning ingliz tili badiiy adabiyotida ifodalanishi masalasi bilan shug'ullangan. Ishda

---

<sup>14</sup>. Языковые средства выражения иронии на материале норвежских публицистических текстов: Автореф.дисс....канд.филол.наук. – , 200 . – с.

ironiyaning kognitiv strukturasi, uning milliy mental xoslanganligi va bevosita olamning milliy xoslangan lisoniy manzarasi muammolari xususida to'xtalib, ingliz badiiy matnlarida qo'llanishi haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqotning muhim yutuqlaridan biri ironiyaga kontseptual munosabatda bo'lishdir. Bunda "ironiya" kontseptining kognitiv sifatlari va uning yadro, markaz, chekka turlari farqlanadi. Ironiya serqirra kontsept sifatida olinib, uning segmentlari, falsafiy–estetik, uslubiy (kontekstual, intonatsial), adabiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Kognitiv kategoriya sifatida ironiyaning kognitiv modeli (ironiyadagi freym, ssenariy) tiklanadi. Albatta, kognitiv struktura milliy tafakkur bilan bog'lanadi, milliy tafakkur esa milliy ong, milliy madaniyat, milliy turmush tarzi kabi masalalardan ayri holda mavjud bo'lishi yoki tahlil qilinishi mumkin emas. Shu boisdan ironiyaning kognitiv modeli ingliz milliy mentalitetiga bog'liq ravishda borliqning lisoniy kartinasi qismi sifatida tadqiq qilinadi. Ironiyaning badiiy diskursda voqelanishi masalasi Oskar Uayld, Uilyam Somerset Moem, Djulian Barns asarlari misolida tahlil qilinadi.

Ironiyaning yana bir qirrasini uning milliy xoslanganligi jihati bilan bog'liq ravishda tadqiq qilinadi. Bunda ironiyaviy ma'no, ironiya va xushmuomalalilik, ironiya va impozitsiya masalasi tahlil qilinadi. Xushmuomalalilik maksimalari aniqlanib, ularning ironiyaga munosabati ochiladi. Xususan, kamtarlik, rozilik, xayrixohlik, ma'qullash maksimalari ironiyaga bog'lab o'rganilgan. Xushmuomalalilik maksimalari buzilishida ironiyaning roli yoritiladi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot muloqot madaniyati va etnik madaniyat mushtarakligi masalasiga qaratilgan lingvokulturologik aspektdagi muhim ish sifatida baholanishga loyiq. Ironiyaning matn tuzish xossasi tilshunoslar diqqat-e'tiborini ko'proq tortmoqda. Shu boisdan ironiya bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarning aksariyatida uning matn tuzish imkoniyatlari, matnni bog'lash, birlashtirish xossalari doir qimmatli fikrlarni ko'rish mumkin.

Tadqiqotda matn tashkil qiluvchi ironiya birlashtiruvchi fenomen sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bunda u nafaqat ironiyaviy mazmun, balki matn tuzish imkoniyatiga ham egaligi uqtiriladi. Ironiya kontseptual kategoriya bo'lib,

barcha tillarga xos. Butunicha badiiy matnga tegishli bo‘lib, muallifga tasvirlanuvchiga o‘z munosabatini zimdan ifoda qilish imkoniyatini beradi. Matn tuzuvchi ironiyaning voqelanishida “adashish” kontsepti muhimligini uqtiradi. Zero, nasriy ironiya o‘z holatiga nisbatan adashgan, ammo bu holatdan chiqish yo‘li topilgandek tuyuladigan qahramon harakatlanuvchi dialogik ironiyaga monanddir. Matn qabul qiluvchi germeneytik ko‘rsatmalar asosida personajdan yashirin yo‘l bilan ironiyaning kodlarini ochadi. Albatta, matnning maqsad va vazifalari, hajm-ko‘lam, axborot strukturasi nuqtayi nazaridan uni tashkil qiluvchi ironiya turli eskplikativ xarakter kasb etadi. Yuqorida aytilganidek, har qanday holatda ham matn tuzuvchi ironiya muallif mahorati va idiostil, shuningdek, adabiy-badiiy yoki sotsial diskurs xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha voqelanadi.

Shuningdek, boshqa hodisalarga nisbatan ironiyaning matn tashkil qilish qiymati ustuvor bo‘lganligi sababli bunga urg‘u berish ommalashmoqda. Albatta, troplar va uslubiy figuralarning matn tuzish imkoniyatiga panja orasidan qarab bo‘lmaydi. Ularda ham bu imkoniyat o‘ziga xos ravishda mavjud. Ammo ironiya va unga yondosh boshqa hodisalarni ushbu imkoniyat darajasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Bu, borada tadqiqot olib borgan N.A.Syirmaning fikricha, matnni tashkil qiluvchi vositalar uch guruhga ajratiladi:

TROPLAR	FIGURALAR	SXEMALAR
Metafora	Asindeton	Allyuziya
Metonimiya	Polisendeton	Giperbola
Epitet	Anakoloton	Ironiya
Oksyumoron	Anadiplousis	Jonlantirish
Antonomaziya	Ellipsis	Kalambur
	Anakoluf	Qiyoslash

Tadqiqotchi trop, figura va sxemalar o'rtasiga matniy kategoriyalarni tashkil etish imkoniyati nuqtayi nazaridan keskin chegara qo'yishdan tiyiladi, ularni farqlashga nisbiylik tamoyili asosida yondashadi. "To'plagan til materiallarimizni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, trop, nutqiy figura va sxemalar personallik, kogeziya va kogerentlik matniy kategoriyalarini shakllantirishda ishtirok etadi. Ammo ularni chegaralash mutlaqo shartli bo'lib, ifodaviylikning ko'plab usullari ushbu kategoriyalarning barchasi shakllanishida ishtirok etishi mumkin."

Qiyos va ironiyani tadqiqotchi matn tuzishda baqamti ishtirok etuvchi hodisalar sifatida baholaydi. Masalan, buni epitetlar misolida asoslaydi. "Ba'zan sifatlashlar inson tabiatini ochib beradi, shuningdek, bir vatqning o'zida qiyofani shakllantiradi ham. Chexov sifatlashlari, odatda, ironiyaviy xarakter kasb etgan bo'ladi. Ironiya asosidagi zidlash shaxsdagi qarama-qarshi holatlarni bo'rttirish imkonini bergan.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan komik terminologiyaning lingvistik tekshirishlarda aks etishi, ularni talqin qilish tajribalari kuzatilar ekan, komik terminologiya sirasida ironiya alohida o'rin tutishi haqida ham fikrlar beriladi: "Ironiya – tasdiq va inkor modallikning, ifoda obyektiga salbiy yoki ijobiy munosabatning bir ifoda (so'z, so'z birikmasi, gap) da kontekst, intonatsiya asosida almashtirib berilishidan iborat semantik mexanizm. Ironiyaviy ifodalarning kommunikativ maqsadi "shubha ifodasi"dan "adresat diskreditatsiya" gacha o'zgarib turishi mumkin. Negativ munosabatning implitsit tabiati ironiyani yashirin nutqiy agressiya sifatida tan olish imkonini beradi." Tahlillar komik terminologik apparat sirasida ironiya kategoriyasining mustahkam o'rni borligiga ishora qiladi.

Tadqiq metodologiyasining yangi taraqqiyot tendeniylariga muvofiq ravishda o'zgarib borishi ironiyaning talqini masalalarida ham o'ziga xos va yangicha yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda.

Tartibsizlikda tartib va tartibdagi tartibsizlikni tadqiq qilish XX asrning oxiri va XXI asr boshida yangi bilish paradigmalarining shakllanishiga olib

keldi. Umumsinergetik yondashuvning tarkibiy qismi bo'lgan lingvosinergetikaning shakllanishi va rivojlanishini shu bilan izohlash mumkin.

Til hodisalariga lingvosinergetik yondashuvning mohiyati til diskursga o'z-o'zidan tashkil bo'luvchi sistema sifatida qarash bo'lib, bunda tashqi va ichki omillar o'rtasidagi tebranishlar muloqotda fluktual chekinishlarni, bifurkal rivojlanishni keltirib chiqarishini asoslashdir.

Tilshunos D.S.Xramchenkoning ironiyaga sinergetik aspektda yondashuvi ushbu jarayon bilan bog'liqdir. "Ingliz rasmiy diskurslarida ironiyaning funksional mohiyatini nochiziqli effekt – "ikki+ikki=besh" formulasi asosida tasvirlash mumkin. Zero, u barcha diskursiv unsurlar imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi, kommunikativ blokda yangi mazmun vujudga kelishi va bu uni tashkil etuvchilarga teng emasligini asoslash imkonini beradi. Ironiyaning ritorik figurasi ikkilamchi mazmuniy rejaning shakllanish vositasi sifatida qo'llanadi. U rasmiy diskursning pragma-semantik sistemasiga kirib, turli sathlarning har xil chiziqli va nochiziq til vositalari funksional imkoniyatlari sinergiyasi sharofati o'laroq mazmuniy sistemaning har xil tartiblilik holatidan chiqishi va diskursning keyingi evolyutsiyasiga, kommunikativ maqsad funksional attraktoriga xizmat qiladi."

Ironiyadagi shakliy, mazmuniy va kommunikativ qarama-qarshi mohiyatning rasmiy muloqot yo'nalishini kutilmaganda o'zgartirish imkoniyati ularni sinergetik metodologiya asosida tekshirishning samaradorligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, dunyo fanida ironiyaning maxsus ilmiy fenomen sifatida tan olinishi va tadqiqqa tortilishi asosan o'tgan asrning oxiri va yangi asrning ibtidosiga yuz berayotgan globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, klassik (Suqrot), romantizm, modernizm va postmodernizm bosqichlaridan faqat oxirgisida ironiyani ilmiy tadqiq qilishga qat'iy kirishildi, obrazli qilib aytganda, ironiya "qo'rg'oni"ga shturm boshlandi. Turli fan sohalari uni o'z o'rganish obyektiga aylantirdilar. Xususan, lingvistikada u ba'zan sof lingvistik, asosan, boshqa

fanlar bilan tilshunoslikning tutashuidagi oraliq sohalarning o'rganish manbayiga aylandi. Uning kommunakativ-pragmatik, kognitiv, matniy imkoniyatlarini o'rganishga keng kirishildi.

O'zbek tilshunosligining bugungi holati, ya'ni uning til substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqiga o'tayotganligi ironiyani maxsus tadqiq qilishni ham dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi.

## **1.2. Ironiyaning yondosh hodisalarga munosabati**

Har qanday hodisaning mohiyati uning yondosh hodisalarga munosabatini aniqlash, aniqrog'i, uni sistemada kuzatish asosida ochiladi. Shu boisdan ironiyaning ham substansial mohiyatini aniqlash va tavsiflashga bo'lgan ehtiyoj uni o'z "sistemadosh"lari, unga yondosh hodisalar bilan sistem munosabatlarini aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Avvalo, ironiya konseptining leksikografik talqiniga, uning lug'at va qomuslardagi izohlariga murojaat qilamiz.

Ikki tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ironiyaga shunday izoh beriladi:

"IRONIYA - Masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq.

– Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi ironiya bilan Yo'lchi. Oybek, Qutlug' qon."

Lug'atda ironiya o'zagi asosida yaratilgan ironiyali, ironiyaomuz so'zlari izohi ham berilgan, ularning ma'nosi ironiya leksemasining sememasi asosida tavsiflangan.

Ko'rinadiki, lug'atda ironiya leksemasining mohiyati gapning qo'llanish maqsadi asosida tavsiflangan, ma'noni yoritish uchun ironiyaning sinonimlari (qochirim, istehzo, piching, kesatiq) ga ham murojaat qilingan.

O'zbek tilining 5 tomli izohli lug'atida leksema izohi etimolik ma'lumotlar bilan boyitilgan, misollar bilan to'yintirilgan. Avvalgi lug'atda

uning birgina ma'nosi qayd etilgan bo'lsa, bunda u polisemantik leksema sifatida tavsiflangan:

“IRONIYA [a. كناية – belgi; shama, ishora; piching; kesatiq] Masxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so'z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi.

– Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi ironiya bilan Yo'lchi. Oybek, “Tanlangan asarlar”.

- Saodatxonning...yuzidagi jiddiylilik o'rnini g'alati, ironiyaga o'xshash tabassum egalladi. S.Zunnunova

- Yangi direktor. –Norboyevmisiz? Mehnatdan qochib kelibsiz-da, singlim, – Uning ko'zoynak orqasidagi ko'zlari ironiya bilan kisildi. O'.Hoshimov, “Qalbingga quloq sol”.

- Shodi Mudarrisovich iljayib turar, so'zlarida hazil aralash ironiya ohangi bor edi. D.Nuriy, “Osmon ustuni”.

Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat.”

Ikkinchi izohda ironiyaning mohiyati ma'lum darajada oydinroq yoritilgan, uning turli sath birliklari bilan ifodalanishi haqidagi hukm (so'z, gap) sathlar bo'yicha sochilgan keng qamrovli hodisa ekanligiga ishora qiladi.

Ironiya lingvistik kategoriya sifatida “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati”da ham izohlangan: “Til birligini uning haqiqiy ma'nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma'noda kesatiq, qochiriq, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim: – Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! – dedi ironiya bilan Yo'lchi (Oybek).”

Ironiyaning sof lingvistik leksikografik definitiyalarida bir xil an'ana hukmronlik qilib keladi. U ham bo'lsa, ironiyada qarama-qarshi qutblarning mavjudligidir.

Tilshunoslikda ironiya asosan leksik birlik sifatida keng talqin qilinadi. “Ironiya (gr. eironeia – bilib bilmaganga olish so'zidan) – ironiya, qochiriq, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs

yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham ironiyaning muhim belgisi soʻz yoki gapning hamma vaqt ikki maʼnoli boʻlishida, haqiqiy maʼno aytilgan soʻz yoki gapning teskari maʼnosi orqali anglashilishida namoyon boʻladi. Ironiya oʻzining taʼsir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat boʻladi. Ironiya usuli, asosan, hajviy, kulgili tasvirda keng qoʻllanadi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidagi voqea ironiya asosiga qurilgan boʻlib, domlanning oʻz xotining yaramas ishlaridan xabarsiz holda mahalladagi halol va pokiza qizlar ustidan kulib yurishi asar oxiridagi “U kishining xotinlari mayiz yemaganlar” ironiyasi orqali fosh etilgan. Ironiya ijodkorning estetik idealini tasvirlagan voqealar, ifodalarning aks holati orqali namoyon boʻladi”.

H.Homidiy va boshqalar muallifligidagi “Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati”da ironiya kategoriyasi allegoriya atamasi mohiyati bilan birday tushuniladi. “Ironiya – q. Allegoriya”. Allegoriya lugʻat maqolasida esa shunday izohni oʻqiyimiz: “Oʻzbek tilida ham shunga monand fikrlar mavjud: “Allegoriya. Grekcha allegoria soʻzidan olingan boʻlib, qochiriq, kesatish maʼnolarini bildiradi.

Tropning bir turi sifatida allegoriya ham soʻzlarning koʻchma maʼnosiga asoslanadi. Yozuvchi abstrakt (mavhum) tushunchalar toʻgʻrisida aniq tasavvur hosil qilish niyatida uni biror xususiyati bilan yaqinlashadigan konkret odamlar orqali badiiy qilib tasvirlab beradi.

- Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni,  
Itga bersang oshingni, itlar gʻajir boshingni. (Maqol)
- Koʻrpangga qarab oyoq uzat. (Maqol)
- Siddiqjon bilan soʻzlashib turganini emas, boqqa tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi. Bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi.
- Sichqon sigʻmas iniga, gʻalvir bogʻlar dumiga. (Maqol)

Misollardagi it, koʻrpa, sichqon, qamchi, somon soʻzlari oʻzining toʻgʻri predmetlik maʼnosini anglatish uchun ishlatilmagan, albatta.



Manbada allegoriyaning ko‘proq masal, ertak janri uchun xos ekanligi, chog‘ishtiriladigan narsalar o‘rtasida ma’lum aloqa bo‘lishi bilan metonimiyaga o‘xshab ketishi ta’kidlanadi.

Allegoriyada har doim ham piching yoki kesatish, yoxud teskari ma’noda qo‘llash holatlari kuzatilmaydi. Demak, allegoriyani ironiya (ironiya) ning bir turi sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Zero, unda ironiyaning umumiy subyektiv belgisini kuzatmaymiz. Allegoriyaning asosiy belgisi uning jonsiz insondan boshqa jonli narsalar vositasida insoniy sifatlarni tasvirlashi, obrazlilik muhim o‘rin tutadi va kulish, istehzo har doim ham mavjud bo‘lavermaydi.

Antifrazani ironiyaning bir ko‘rinishi sifatida tushunish ham mavjud. “O‘zbek tili stlistikasi”da antifrazaga berilgan ta’rifda buni kuzatamiz: “Antifraza ironiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, biror shaxs yoki predmetga xos bo‘lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulgili intonatsiya bilan inkor qilinadi: Juda aqlli, nima ham der edik. (M.G). Yaxshi gap. Qanday yaxshi! Bir kishini aldab, so‘ng o‘zini hech narsani bilmagan kishi qilib ko‘rsatish. (Og‘zaki nutqdan)

Ironiyadagi uch xarakterli jihat:

a) inkor;

b) jiddiylik qiyofasidagi nojiddiylik;

v) qarama-qarshi mohiyatlarning birlashuvi yaxlitligi asosida antifraza munosabatda bo‘linadigan bo‘lsa, uning ironiya bilan ma’nodosh ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug‘atlarida ironiya umumiste’mol leksemasining ma’nodoshlari sifatida kesatq, istehzo, piching leksemalari ajratilgan va ularning ma’nodoshlik qatori quyidagicha tashkil qilingan:

#### KESATIQ – IRONIYA – ISTEHZO – PICHING

“Kamsitish, masxaralashni yarim yashirin ravishda ifodalovchi gap-so‘z, xatti-harakat. Kesatish so‘zida masxaralash ottenkasi ironiya so‘ziga nisbatan kuchliroq. Ironiya so‘zi kesatq so‘ziga nisbatan kitobiy bo‘lib, termin sifatida ham qo‘llanadi. Istehzo kitobiy.” Ironiya so‘zining termin sifatida qabul qilinganligi boshqalarini unga kiruvchi uyadoshlar sifatida e’tirof etish imkonini

beradi. Aytilganlar asosida ironiya umuiste'mol so'z sifatida kesatiq, piching, istehzo so'zlari uchun uya leksema bo'lib, u o'zida ularning ham semantik imkoniyatlarini mujassamlashtirganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Ba'zi adabiyotlarda ironiyani sarkazm bilan tenglashtirish hollari uchraydi. Biroq ular garchi bir umumiylik (tanqid, zarba berish) umumiyligi ostida birlashsa-da, farqli jihatlarga ega. Ironiyadan farqli ravishda "sarkazm ko'chma ma'noga ega bo'lmaydi, ammo muallifning tasvirlayotgan voqea-hodisaga munosabatini ko'rsatadi. Bu ham achchiq kulgu, ta'naga asoslangan bo'ladi. Shu xususiyati bilan ham sarkazm ironiyaga ancha yaqinlashgan bo'ladi. Sarkazm ko'proq satirik asarlarda, satirik tasvirida qo'llanadi. Bunda ko'proq shaxs-predmet yoki voqea-hodisaning salbiy tomonlari fosh qilinadi." Demak, sarkazm ironiyaning umumiy (yengil) kulgi, masxaralash ottenkasidan kuchli bo'yog'i bilan farqlanadi.

- "Men sizni, meni Balxga yuborib, bunchalik marhamatlar qilasiz deb o'ylamagan edim" jumlasida Navoiyning Boyqaroga aytayotgan *marhamat* sarkazmi o'ta "achchiq"ligi bilan xarakterlanadi va ironiyaning sarhadlaridan ma'lum darajada chetga chiqadi. Bunda, albatta, sarkazm ko'chma ma'noga ega bo'lmaydi degan tezis amal qilmayotgandek tuyuladi. Biroq marhamat so'zining jazo so'zi ma'nosini berayotganligi uning ko'chma ma'no ifodalayotganligini ko'rsatadi. Lekin sarkazm har doim ham o'zida qarama-qarshi mohiyatni aks etiravermaydi. - Masalan, "Rahnamo iblis bo'lgach, yanglishish tabiiydir" jumlasida Navoiy tilidan shohga aytilayotgan rahnamoning iblisga o'xshatilishi sarkazmga misoldir. Bunda piching, kesatish, lisoniy shakl mohiyatiga teskari ma'noni ifodalash holati mavjud emas ironiyaviy unsur kuzatilmaydi. Demak, sarkazm ma'lum bir holatlarda ironiya bilan kesishsa-da, lekin u bilan mutlaqo teng keladigan hodisa emas.

Termin sifatida ironiya atamasi ironiya va antifraza atamalari bilan ma'nodoshlik munosabatida turadi. Biroq ironiya birligining o'zbek tiliga mutlaq o'zlashganligi, ironiyaning olinmaligi saqlanganligi, antifraza esa kam iste'molligi bilan xarakterlanishi ular sirasida ironiyaning mutlaq ustuvor termin

sifatida yashovchanligini ta'minlaydi. Mazkur leksik birliklarning o'zaro munosabatini chizmada quyidagicha berish mumkin:

Sarkazm
Ironiya (Antifraza)
Piching, kechatiq ironiya

Uslubiy vosita sifatida ba'zan trop, uslubiy figura, sxemalar farqlangani holda, ko'p hollarda ironiya trop majmuyida ko'riladi. Masalan, yuqorida N.A.Syirma trop, figura va sxemani farqlab, ironiyani sxema sirasiga qo'ygan edi. "O'zbek tili stilitikasi"da ironiya, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'xshatish, antifraza (ironiyaning bir turi), sarkazm, perifraz, mubolag'a, litota, allegoriya, simvol, jonlantirish, apostrofa kabilar bilan bir qatorga qo'yiladi. Bunda ko'chish usuli, ko'chish jarayoni va ko'chim mahsulini farqlanmagandek tuyuladi. Masalan, bunga metafora bilan ironiyaning bir qatorga qo'yilishi asosda amin bo'lish mumkin.

Ko'chish usullari va ko'chim mahsulini bir qatorga qo'yish keyingi ayrim darslik va manbalarda ham ko'zga tashlanmoqda. Masalan, keyingi yillarda nashr etilayotgan darslik va qo'llanmalarda ma'no ko'chish usullari sirasi kengayib ketayotganligiga amin bo'lish mumkin. Masalan, "O'zbek tilidan universal qo'llanma" kitobida mualliflar ironiyani ko'chish usuli sifatida qaraydilar: "Ma'no ko'chishining nima asosda yuzaga kelishiga ko'ra 5 turi bor:

- 1) metafora;
- 2) metonimiya;
- 3) sinekdoxa;
- 4) vazifadoshlik;
- 5) kinoya."

Yoki o'rtta maktabning 11- sinf o'quvchilari uchun nashr etilgan "Ona tili" darsligida ironiya va tag ma'no metafora, metonimiya, sinekdoxa kabilar qatoriga qo'yiladi.

Demak, ironiyaning ko'chish usullariga, ko'chish jarayoni va mahsuliga munosabatini ham oydinlashtirish zarur.

Ko'chimga ehtiyoj, uni amalga oshirish mexanizmi va natija murakkab jarayon bo'lib, bunda har bir bosqichga xos hodisalarning murakkab tabiatliliigi tadqiq jarayonida aniq to'xtamga kelish imkoniyatni ma'lum darajada cheklaydi. Shu boisdan, masalan, ma'no ko'chish usullari va uning natijasi bo'lgan holatlarni chalkashtirish hollari tegishli adabiyotlarda uchrab turadi.

Ko'chim ikki ehtiyoj asosida vujudga keladi:

a) tegishli ma'noni ifodalovchi birlikning subyektiv baho va kommunikativ niyat darajasida emasligi;

b) tegishli ma'noni ifodalovchi lisoniy birlikning mavjud emasligi.

Buni tilshunoslar quyidagicha izohlaydilar:

1. Bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi.

2. Biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi.

Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, quyi so'zi anglatadigan ma'noni etak so'zi qulayroq va to'laroq ifodalaganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan etak so'zi ishlatilgan.

O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jo'g'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois qo'ltiq so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi."

Har qanday ko'chim nutqiy hodisa bo'lib, u tafakkur bilan bog'liq murakkab kognitsiya asosida yuz beradi. Ko'chim hosil qilish maqsadi, uni "tashkil etish" jarayoni va natijani qo'lga kiritish asosidagi yakun bir yaxlit kognitiv ssenariyni tashkil qiladi. Masalan, "o'lmoq" tushunchasining

soʻzlovchi kayfiyatiga salbiy taʼsirini kamaytirish istagidan iborat maqsad, unga muvofiq keladigan ifodani qidirish va ifodani nutqda qoʻllash bilan bogʻliq natija ana shu kognitiv ssenariyga misol boʻla oladi va u quyidagi koʻrinishda aks etadi:

kommunikativ niyat	kognitsiya	kommunikativ natija
evfemalashtirish niyati	evfemizatsiya	evfemiya
“oʻlmoq”ni evfemalashtirish niyati	metaforizatsiya	“joni uzilmoq”

Bu kognitiv ssenariyni koʻchim hodisasiga nisbatan quyidagicha tatbiq qilish mumkin.

Umuman, tilda metaforizatsiya, metonimizatsiya, funksionimizatsiya hodisalari kognitsiya jarayonini oʻzida aks ettiradi. Kognitsiya koʻchish usulining ishga tushish jarayonini ifodalaydi. Ana shu jarayon hosil boʻlgan koʻchma maʼnoning xususiyatiga koʻra emfemizatsiya, disfemizatsiya, ironizatsiya kabi terminlar bilan ham beriladi.

Shu maʼnoda yuqorida kognitiv jarayonda ironiya natija boʻlib, u evfema, disfema va boshqa koʻchma maʼnolar bilan jarayon mahsuli sifatida namoyon boʻladi. Tilda natija sifatida metafora, metonimiya, sinekdoxa mavjud emas, balki ularning har biri jarayon mexanizmining mavhum operatsion tizim sifatida ongda yashaydi.

Ironiyalashtirish (ironizatsiya) murakkab kognitiv jarayon boʻlib, unda lisoniy, madaniy va sotsipragmatik omillarning qorishuvidan iborat yaxlit mexanizm ishlaydi.

Ironiya estetika kategoriyasi boʻlib, qadimgi ritorika anʼanasidan kelib chiqqan. Ironiya materialni kulgili taqdim etish vositasi sifatida soʻzlar va gaplarning tom maʼnosini ularning haqiqiy maʼnosiga qarama-qarshi qoʻyishga asoslangan adabiy uslubni shakllantirishning kuchli vositasidir Salbiy

pozitsiyaning yashirin namoyishi sifatida istehzo va masxara usuli qo'llaniladi. soxta bayonot jamoat ongining har qanday atributini yo'q qilish uchun ishlatiladi va soxta inkor - haqiqiy haqiqatlarni tasdiqlash uchun ("Chekishni tashlashdan osonroq narsa yo'q - men shaxsan buni uddaladim" bu taxminan o'ttiz marta") (Og'zaki nutqdan). Ustunlikning istehzoli usuli ko'pincha qahramonlarni masxara qilishning asosiy usuliga aylanadi. Hazil janrining qisqa shakllarining samarali istehzoli usuli - bu o'quvchi yoki tomoshabinning tezkor reaksiyasi uchun mo'ljallangan konnotatsion banddir. Qattiqroq, murosasiz istehzo shakllarini kinoya va grotesk deb hisoblash mumkin.

### Ironiya shakllari

*To'g'ridan-to'g'ri ironiya*- tasvirlangan hodisani kamsitish, salbiy yoki kulgili xarakter berish usuli.

*Ironiyaga qarshi* to'g'ridan-to'g'ri istehzoning teskarisi bo'lib, anti-ironiya ob'ektini kam baholangan deb ko'rsatishga imkon beradi.

*O'ziga ironiya*- o'z shaxsiga qaratilgan ironiya. O'z-o'zidan istehzo va anti-ironiyada salbiy bayonotlar teskari (ijobiy) ma'noni anglatishi mumkin. Misol: "Biz, ahmoqlar, qayerda choy ichamiz".

Istehzoli dunyoqarash - bu e'tiqodga umumiy bayonotlar va stereotiplarni qabul qilmaslik va turli xil "umumiy tan olingan qadriyatlar"ni juda jiddiy qabul qilmaslik imkonini beradigan ruhiy holat.

Erkinlik kinoyadan boshlanadi. Viktor Gyugo<sup>15</sup> Ironi zaiflarning qurolidir. Dunyoga qudratli ular bunga haqli emas. Irony - bu iltifot sifatida yashiringan haqorat. umidsizlikning oxirgi bosqichi.

IRONY bir turdagi masxara, belgilar Buni tan olish kerak: xotirjamlik va vazminlik, ko'pincha hatto sovuq nafrat soyasi va eng muhimi, buning qadr-qimmatini inkor etish yotadi.

Ironiya, ko'pincha engil istehzoli allegoriya va istehzo yoki masxara o'rtasidagi farqni aniqlash qiyin bo'lganda paydo bo'ladi. Yunonlar haqli

---

<sup>15</sup>. Viktor Gyugo "Муза в изгнании". Анн-Мари Брамм. Журнал «Mosaic. A Journal for the Comparative Study of Literature and Ideas», VIII/1, осень 1974 года

ravishda insonning jamiyatdagi rolini anglash, har bir shaxs va umuman jamiyatning o'zaro ta'siri, shuningdek, insonning o'zini o'zi belgilashi bilan bog'liq ko'plab falsafiy oqimlarning asoschilari hisoblanadi. Shuning uchun qadimgi Rim mutafakkirlari kinoya kabi tushunchani e'tiborsiz qoldira olmadilar. Ularning ta'rifiga ko'ra, bu so'z "go'yo", so'z va gaplarni qarama-qarshi ma'noda, masxara qilish maqsadida qo'llash ma'nosini bildiradi.

Antik davrda istehzoli kontekstdan foydalanish faylasuflar va davlat arboblarning nutqlarida asosiy elementlardan biriga aylanadi. O'shanda ham istehzoli tarzda taqdim etilgan ma'lumotlar quruq faktlarni taqdim etishdan ko'ra ko'proq esda qolarli va qiziqarli ekanligi ayon bo'ldi.

XIX asr oxirida so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ma'nolari qarama-qarshi bo'lgan maxsus adabiy uslub shakllandi. Adabiyotdagi ironiya o'quvchilar e'tiborini jalb qilish, matnga obrazlilik va yengillik berishning eng keng tarqalgan usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bu asosan gazeta va jurnallarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Ommaviy axborot vositalari jurnalistlarning istehzoli sharhlari tufayli juda mashhur bo'ldi. Bundan tashqari, bu nafaqat kulgili voqealar haqidagi hikoyalarda, balki xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yangi qonunlar va voqealarni yoritishda ham ishlatilgan.

Ironiya va sarkazm o'rtasidagi farq nima?

Birinchi - komiksning nozik vositasi. Ironiya ifoda vositasi sifatida mohiyatan so'zlarning tom ma'nosini haqiqiy ma'noga qarama-qarshi qo'yadigan hazildir. Bu kulgiga sabab bo'ladi va boshqa hech narsa emas. Ironiya va kinoya o'rtasidagi farq shundaki, ikkinchisi tabassumga sabab bo'lmaydi. Ob'ektning axloqiy fazilatlarini qattiq tanqid qilish va baholash uchun ishlatiladi. Sarkazm jamoatchilikni qoralash va qoralashga chaqiradi.

Mana sezilarli farqlar:

1. Ironiya nutq ob'ektini yashirin va yashirin tarzda baholaydi. Sarkazm minimal allegoriya bilan ochib beradi.

2. Kinoyaviy bayonot har doim ijobiy shaklga ega bo'lib, yashirin istehzodan farqli o'laroq, ma'nosi kamayadi. Sarkazm haqoratli tanqid mavzusiga bevosita ishora qiladi.
3. Komiksning bir turi sifatida ironiya hazil janrlarida va og'zaki majoziy nutqda qo'llaniladi.
4. Sarkazm o'tkir satira belgisidir. Undan ma'ruzachilar o'zlarining ayblovchi nutqlarida va ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo'lgan jurnalistik matnlarni yozuvchilar tomonidan qo'llaniladi.

Satira va ironiya o'rtasidagi farq nima?

Birinchisi, san'atdagi komiksning bir turi. U hazil va kinoyadan qoralashning keskinligi bilan ajralib turadi. Uning kuchi satirik egallagan pozitsiya qanday ijtimoiy ahamiyatga ega va qanday samaradorlikka bog'liq. Kulgili vositalar-kinoya, giperbola, allegoriya, grotesk, parodiya. Bu janr antik davr adabiyotida qanday paydo bo'lgan va keyin boshqa san'at turlarini qamrab olgan:

- kino;
- bosqich;
- televizor;
- adabiyot (komediya);
- Tasviriy san'at (multfilm, karikatura);
- jurnalistika (felyeton) va boshqalar.

Satira va ironiya o'rtasidagi farq shundaki, u kulgili tasvirlangan obyektga qarshi kurashadi. U faollik, irodali yo'nalish va xarakterlidir. Satirada qahqaha doimo g'azab va g'azab bilan birga keladi. Ko'pincha ular kulgili narsalarni chetga surib, oldinga chiqadilar. Shunday qilib, ironiya o'zida so'zlovchining salbiy hissiy munosabatini aks ettirgan, shakliy va mazmuniy nomuvofiqlikdagi, kulgi, istehzoga asoslangan, turli sathga birliklariga xos nutqiy ma'nodir. Ironiya mohiyatan evfemik, disfemik ma'nolarga yaqin turadi va birgalikda turga mansub bo'ladi.



## **Bob bo'yicha xulosalar**

Dunyo fanida ironiyaning maxsus ilmiy fenomen sifatida tan olinishi va tadqiqqa tortilishi asosan o'tgan asrning oxiri va yangi asrning ibtidosiga yuz berayotgan globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, klassik (Suqrot), romantizm, modernizm va postmodernizm bosqichlaridan faqat oxirgisida ironiyani ilmiy o'rganishga qat'iy kirishildi, obrazli qilib aytganda, ironiya "qo'rg'oni"ga shturm boshlandi, ironiyashunoslik sohasi vujudga keldi. Turli fan sohalari uni o'z o'rganish obyekti sifatida oldilar. Xususan, tilshunoslikda u ba'zan sof lingvistik hodisa sifatida qaraldi, asosan esa, boshqa fanlar bilan tilshunoslikning tutashuidagi oraliq sohalarning o'rganish manbaiga aylandi. Uning kommunakativ-pragmatik, kognitiv, matniy imkoniyatlarini ilmiy tadqiq qilish jadal tus oldi.

O'zbek tilshunosligida til hodisalarining substansial xossalari tadqiqi muvaffaqiyat bilan amalga oshirilib, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tadqiq qiluvchi yangi tilshunoslik paradigmalari shakllanishi uchun zamin yaratildi. O'zbek tilshunosligining bugungi holati, ya'ni uning til substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi tadqiqiga o'tayotganligi ironiyani ham o'ziga xos lingvomadaniy fenomen sifatida maxsus tadqiq qilishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Ironiya so'zlovchining obyektiv borliqdagi biror hodisaga tanqidiy munosabati asosida hosil bo'ladigan, uning kommunikativ maqsadiga muvofiq ravishda turli kognitsiya usulida hosil bo'ladi.

Ironiya bevosita bir sathga mansub ma'noviy mohiyat emas. U turli sath birliklari tomonidan ifodalanaverishi mumkin. U ko'chim usullarining biri asosida vujudga keladi.

Ironiyalashtirish (ironizitsiya) biror ma'noni shakl bilan birlashtirish jarayonidan iborat kognititsiyaning bir ko'rinishidir.

Ironiya piching, kesatiq, istehzo uchun uya tushuncha bo'lib, bu uning terminologik mohiyat kasb etishiga asos bo'lgan.

Antifraza ironiyaning ma'nodoshi bo'lib, ironiya va sarkazm esa bir-biriga ma'lum darajada yaqinlashuvchi tushunchalar sifatida amal qiladi.

Ironiya o'zida so'zlovchining salbiy (tanqidiy) hissiy munosabatini aks ettirgan, shakliy va mazmuniy nomuvofiqlikdagi, kulgi/istehzoga asoslangan, turli sathga birliklariga xos nutqiy ma'nodir. Ironiya mohiyatan evfemik, disfemik ma'nolarga yaqin turadi va ular bilan hosil bo'lish va funksional qiymati jihatidan bir turga mansub bo'ladi.

## II BOB. IRONIYA IFODALOVCHI VOSITALAR VA ULARNING TASNIFI

### 2.1. Ironiya ifodalovchi vositalar haqida

O‘zbek tilida ironiyaning ifodalanish imkoniyatlari juda keng bo‘lib, faqat til vositalari bilangina cheklanmaydi. Chunki so‘zlovchi ironiyani turli maqsad va vaziyatlarda qo‘llaydi. Ma’noning ifodalanishi nutq vaziyati va sharoitiga ko‘ra vositalarning imkoniyatlariga moslashadi. Ayrim vositalar ma’noni ochiqqa o‘zaro erkin muloqot sharoitida ifodalay olsa, ayrimlari yopiq va zimdan ifodalash uchun xoslangan bo‘ladi. “So‘z yoki gap nutq kontekstida o‘zining odatlanilgan qo‘llanishlariga zid ravishda kishida shubha uyg‘otadigan kulgili va “egri” ma’no kasb etadi”<sup>16</sup>. Ana shu kulgili holatni tug‘dirishda sharoit va vositalarning moslashuvi jarayoni kechadi. Ayrim hollarda til vositalari mazkur sharoit bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri moslasha olsa, boshqalarida moslashtiruvchi omil sifatida noverbal vositalar ham yuzaga chiqadi. Ba‘zan ironiyaning “ayyorona sukut” sifatida e’tirof etilish holatlari ham fikrimizga dalil bo‘la oladi<sup>17</sup>.

Ma’lumki, ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ironiya uslubiy priyom sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, lisoniy va nolisoniy vositalarning uslub talabi va so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga ko‘ra “egiluvi” yuz beradi. Bu egilish semantik strukturaning vaqtincha aks darajaga aylanishigacha boradi. Umuman olganda, ironiya uslubiy priyom sifatida matnga xos kategoriya sifatida mavjud.

Har qanday hodisaning yuz berishida muhit muhim rol o‘ynaganligi kabi ironiya ham odatda muloqot muhitidan kelib chiqqan holda baholanadi. Shu boisdan ironiya matnda kuzatilganda kontekstual ironiya sanalsa-da, aslida ularning barchasi situativ hodisa sifatida amal qiladi. Demak, ironiya ifodalovchi vositalarni so‘z, so‘z birikmasi yoki matn yordamida ifodalovchi ironiya deb atash nisbiy bo‘lib, barchasi o‘z-o‘zicha bu imkoniyatni voqelantira

---

<sup>16</sup> Лингвистической энциклопедический словарь. М. 1987. – С.132.

<sup>17</sup>Гомлешко Б.А. Языковые средство выражения иронии ... – С. 9.

olmaganligi sababli ularni mutlaq ironiya voqelantiruvchisi sifatida baholash ham nisbiy. Quyidagi matnga diqqat qilaylik:

*“Xolidiy davrida intizomni nazorat qilish shu xonimga topshirilgan, bu vazifa boshliq o‘zgargandan keyin ham fidoyilik bilan bajarilardi. O‘n besh daqiqa kech qolgan xodim bu xonimning temir daftariga tushar, “qayta qurish ishiga sezilarli ulush qo‘sha olmayotgani uchun” mukofotlardan mahrum etilardi. Anvar barvaqt turib, ishga barvaqt kelishga o‘rgangani uchun bu ro‘yxatga tushish baxtidan benasib edi. Kadrlar bo‘limining boshlig‘i uning kech qolishini juda-juda istar edi. Qani edi, Anvar ishga kechiksa-yu, bu xushxabarni Xolidiyga yetkazsa, hayfsan e‘lon qilish haqidagi buyruqqa imzo chektirib chiqsa. .. Vaqt-bemahal xonalarni ham aylanib yuruvchi xonim eshikni ochganida, “navbatdagi tekshiruv shekilli”, deb o‘ylashdi. Xonim to‘g‘ri Anvarga yaqinlashdi-da, sal engashib, Siz men bilan birga yuring”, dedi. Bu sirli chaqiruv xonadagilarning diqqatini tortdi. “Eng kichkina ilmiy xodim” ma‘nodor qilib yo‘talib qo‘ydi. Anvar xonimga bir qarab olib, qog‘ozdagi satrlarni diqqat bilan o‘qiyotganday muk tushdi.*

(T.Mal., “Shaytanat”).

Matnda ikkita ironiyaviy ifoda bor: 1) *qayta qurish ishiga sezilarli ulush qo‘sha olmayotgani uchun*; 2) *eng kichkina ilmiy xodim*. Anvarning qayta qurish ishiga hissa qo‘shayotgani aniq. Lekin birgina ishga kechikishi hodisasi asosida uning butun faoliyatiga “loy chaplash” o‘sha tuzumning illatlaridan, byurokratik amallaridan biri edi. Yozuvchining ironiya asosidagi kommunikativ niyati ushbu nutqiy ifoda bilangina ro‘yobga chiqmaydi. Uning mazmun-mohiyatini tushunish uchun o‘quvchi muayyan bilim zahirasi ega bo‘lishi, sobiq sho‘ro tuzumi davrida katta shov-shuv sifatida mamlakatni qamrab olgan soxta “qayta qurish” shiorining mazmun-mohiyati bilan tanish bo‘lishi lozim. Aks holda ironiyaning mazmuni tushunarsiz bo‘lishi, adibning niyati anglashilmay qolishi mumkin.

*Kichik ilmiy xodim* ilmiy professiyani ifodalovchi terminning *eng* so‘zi bilan birga ishlatilishi asosida ironiya ma‘nosi bo‘rttirilgan. Aslida “kichik ilmiy

xodim” tushunchasining o‘zi ham adib maqsadini reallashtirish mumkin edi. Lekin ironiyaga mustahkamlovchi vosita bo‘lgan *eng* so‘zi kontekstual zaruratdir. Zero, “kichik ilmiy xodim” katta kirdikorlarga ega. Bunda ironiyaning yadrosi – *kichik ilmiy xodim* termini. Ammo, adib uqtirishicha, kichik ilmiy xodimlikka ham noloyiq shaxs “eng katta yomonlik”larni ham qilishga qodir.

Demak, ironiya ifodalovchi vositalarga mutlaq birlik sifatida qarash ularning imkoniyatlarini sun’iy ravishda kengaytirib yuborishga olib keladi. Har qanday ironiyaviy birlikda ham mustahkamlovchi vositaga zarurat seziladi. Bu, yuqorida aytilganidek, oddiy so‘z shaklida ham, butun matn sifatida ham namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, ironiya ifodalovchi birlik ushbu ma’nosini namoyon qilishda har doim ham “qaramlik” holatida bo‘ladi. Bu ironiya fenomenining kontekstual va situativ xoslanganligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Bozor iqtisodi” matnida *bozor iqtisodi* qo‘shma so‘zi to‘g‘ri va kinoviy mohiyatini birgalikda namoyon qiladi. Ya’ni uning to‘g‘ri ma’nosi teskari ma’nosi bilan qiyoslanishi asosida yuzaga chiqadi:

*Kecha kolxozda ketmon chopib, biri ikki bo‘lmagan dehqon bugun yer olib, bola-chaqasi bilan gullatib qo‘ysa-yu, qaddini kerib yursa, quvonaman. Omadini bersin! Bu – bozor iqtisodi!*

*Kecha zavoddan olgan maoshini qay biriga yetkazishini bilmay rangi sarg‘ayib yurgan injener bugun qo‘shma korxonada ochsa-yu, nest-nobud bo‘lib yotgan mevalardan sharbat olib boyib ketsa, yana quvonaman.*

*Qandini ursine-e! Bu – bozor iqtisodi!*

*Kecha katalakdek xonaga tiqilib, “eskilik sarqiti” – beshik va sandiq yasagani uchun nalugchidan baloga qolib yurgan hunarmand bugun kattakon sex ochsa-yu, rohatini ko‘rsa, tag‘in bir bor quvonaman. Baraka topsin! Bu – bozor iqtisodi!*

*Kecha alifni kaltak deyolmay, o‘qituvchisidan dakki eshitgan va oxir-oqibat “xudosizlar jamiyati”da qo‘nim topgan notavon bola bugun*

“biznesmen” bo‘lsa-yu, xususiy samolyot sotib olsa, hayron qolmayman. Bu ham **bozor iqtisodi**.

Kecha buyuk ixtirolar qilgan olimning iste’dodli shogirdi bugun ilmini tashlab, tadbirkorga aylansa-yu, papkasiga “delavoy shartnoma” solib, zipillab yursa, hayron qolmayman. Bu ham **bozor iqtisodi!**

Kecha yurak qoni bilan doston yozgan shoir bugun o‘sha dostoniga qalam haqi olsa-yu, puli mashinka haqiga yetmasa, hayron qolmayman. Bu ham **bozor iqtisodi!**

Kecha unvon olish uchun yugura-yugura betob bo‘lib qolgan chalasavod “hofiz” bugun “otarma-otar” yursa-yu, “Yaguar” mashinasida kataysa qilsa, hayron qolmayman. Bu ham **bozor iqtisodi!**

Kecha bitta rostga bitta yolg‘on qo‘shmasa, kuni o‘tmagan eshak bozorining dalloli bugun “zamonaviy broker”ga aylansa-yu, uch qavatli “dacha” solsa, hayron qolmayman. Bu ham **bozor iqtisodi!** Ammo kecha alifni kaltak deyolmagan ateist bugun ming kishini to‘plab “amri-ma’ruf” qilsa-yu, unga dashnom bergan o‘qituvchisi choy tashib yursa, hayratlanmay iloj yo‘q! O‘sha o‘qituvchi ertasiga maktabni tashlasa-yu, “Ippadrom”ga chiqib sigaret sotsa, hayratlanmay ilojim yo‘q!

Kecha buyuk ixtirolar qilgan olim, bugun eng yaxshi shogirdidan ayrilgani uchun ma’yuslanib bekatda tursa-yu, “kontrakt” bilan o‘qishga kirgan birinchi kurs talabasi “inomarka”sida unga loy sachratib o‘tsa, hayratlanmay ilojim yo‘q. Olim shu ahvolda tramvayga chiqishdan iymanib, uyiga piyoda ketsa, hayratlanmay ilojim yo‘q! Kecha eshak bozorida dallollik qilgan “zamonaviy broker” bugun uch qavatli dachasini “yuvsa-yu”, chalasavod “hofiz” bir soat “hangragani” uchun boshidan dasta-dasta “ko‘ki” dan sochsalar...Davraning bir burchida o‘tirgan shoir yurak qoni bilan yozgan g‘azallari tuproqqa qorishganidan ko‘ngli o‘ksib izdihomdan bosh egib chiqib ketsa, **hayratlanmay ilojim yo‘q!**

O‘sha davraning yana bir burchida xuddi shu “hofiz”ni bir tiyin ta’masiz davolagan do‘xtir ham o‘tirgan bo‘lsa-yu, “otarchi” unga ko‘zi tushib, “iya,

*sizam shu yerdamisiz, doxtir?” deb piching qilsa...Do‘xtir esa, “ertadan boshlab o‘likdan kafanlik tilaganim bo‘lsin!” deb qasam ichsa...Hayratlanmay ilojim yo‘q!*

*Bunaqa bozorga o‘t tushib, alangasi osmonga chiqsin!*

Matnda bozor iqtisodi birligi uch marta ijobiy, bir marta betaraf va to‘rt marta salbiy qirrasini bo‘rtgan holda namoyon bo‘lgan. Adib birlikning ironiyaviy mohiyatini namoyon qilish uchun uch vositaga suyanadi:

- 1) *bozor iqtisodi* birligining ijobiy bo‘yog‘i;
- 2) *bozor iqtisodi* birligining salbiy bo‘yog‘i;
- 3) salbiy bo‘yoq asosidagi ma‘noni sharhlovchi, birlik salbiy bo‘yoqda ishtirok etgan mikromatn – xatboshi.

Matn ikki qismdan iborat bo‘lib, *bozor iqtisodi* atamasi betaraf bo‘yoq bilan qo‘llangan 4– xatboshi ikki qutbni birlashtiruvchi qismdir.

Matnning dastlabki qismida ijobiy ma‘noni keltirish ham keyingi o‘rinlarda qo‘llangan ironiyaviy ma‘noning reallashishi uchun, uning ta‘sir kuchini oshirish uchun xizmat qilgan.

Ironiyani qo‘llash tilning shartli belgilik va obrazlilik xususiyatiga tayanadi. Bunda ijodkorlar asarda tilning ana shu xususiyatidan unumli foydalanib, ularning semantik va mazmuniy strukturasi o‘z kommunikativ maqsadi va badiiy niyati hamda g‘oyasiga mos ravishda modifikatsiya qiladi.

Kuzatishlardan ma‘lum bo‘ldiki, ijodkorlarning voqelikka fikriy munosabati va hissiy bahosi ironiyalarni qay tarzda va qanday shaklda qo‘llashni ham belgilaydi. Shuningdek, ko‘p hollarda asarning janriy imkoniyatlari ham ironiyalarni qo‘llashning o‘ziga xosligiga ta‘sir qiladi. Oldingi fasllarda aytilganidek, ijtimoiy muhit va davr ham ironiyaning qo‘llanish va tur darajasiga ma‘lum darajada ta‘sir qiladi.

Lisoniy birliklarning ironiyaviy ma‘nolarini ochish va tahlil qilishda ikkinchi nominatsiya hodisasi va qonuniyatiga tayanish maqsadga muvofiq. Ikkinchi nominatsiya jarayonida birlamchi nominatsiyadagidan farqli ravishda yangi ifodaviylik semalari vujudga keladi yoki kuchayadi.

Kinoyaviy vositalarning semantik strukturasi o'rganish lisoniy ma'nolarning nutqiy modifikatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Bunda modifikatsiyasi asosi, vositasi va uni muayyanlashtiruvchi vositalar farqlanadi. Quyida ularning ayrimlarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

– *E, nimasini aytasiz, – dedi boshliq, o'ziga–o'zi achinib. – Qon qilib yuborishadi. Boshliq Jalol Komilovni eslay olmadi. Qog'ozlar titkilanishi lozim bo'ladi. Hujjatlar qoidaga amal qilingan holda tartibli edi. Ishga qabul qilingach, “mehnatsevar”, “kollektivda obro‘–e’tiborga ega” bo'lgani uchun doimiy ravishda pul mukofotlari berilib turilgan. Komilovning mehnatdagi yutuqlari ta'riflangan satrlarni o'qib, Zohid “bu yutuqlar uchun yuz so'mlik kamlik qilar, birato'lasini “Sotsialistik Mehnat Qahramoni” unvoniga taqdim etaverishmagan ekan-da”, deb qo'ydi. Jamol Komilov maoshini ham vaqtida kanda qilmay turgan. Agar hujjatga shak keltirmasa, u kecha, o'limidan so'ng ham kelib maosh olgan. Zohid “balki arvohlarga ham pul zarur bo'lib qolgandir”, deb o'ylab, hujjatlarni boshliqqa uzatdi:*

– *Kollektivda obro'si baland ekan–u, kollektiv bu baobro' odamning o'limidan bexabar qolibdi–da, a? (T.Malik., Shaytanat.)*

Matnda *mehnatsevar* so'zi ironiyaviy ma'no ifodalagan. Bunda u *dangasa* so'zining shartli ma'nodoshidir. *Mehnatsevar* so'zi “mehnatni sevadigan” ma'nosi ega bo'lib, u matnda “ish yoqmaydigan” ma'nosi bilan ishtirok etmoqda. Albatta, yozma matnda so'zning qo'shtirnoq ichida berilishining o'zi ma'lum ma'noda ironiyaviy ma'noni reallashtiruvchi sifatida etarli. Biroq adib mazkur ma'noga muayyanlashtiruvchi kinoyaviy vositalardan yana bir nechtasini keltiradi: *bu yutuqlar uchun yuz so'mlik kamlik qilar, birato'lasini “Sotsialistik Mehnat Qahramoni” unvoniga taqdim etaverishmagan ekan-da”, u kecha, o'limidan so'ng ham kelib maosh olgan, balki arvohlarga ham pul zarur bo'lib qolgandir.* Keyingi vositalar *mehnatsevar* kinoyaviy birligining ma'nosini to'ldiradi: mehnat qilmasdan “pul topishga o'ch”, “haromdan hazar qilmaydigan”, “tekinxo'r” kabi ma'no bo'lakchalari *mehnatsevar* so'zining ma'nosini “mukammallashtiradi”, uning asliyatiga zid ma'nosini *dangasa*



so‘zidagiga nisbatan muayyanroq va aniqroq ifodalaydi. Umuman olganda, mazkur so‘zning ushbu kontekstual ma‘nosi matndagi boshqa ironiyaviy ma‘no ifodalovchi boshqa vositalar bilan kuchaytiriladi. Quyidagi matnda ham *orzu* so‘zining nutqiy ironiyaviy ma‘nosi kontekstdagi boshqa vositalar yordamida muayyanlashtiriladi:

*“Otabek tamom bir esankirashda qoldi. Otini axtaxonag‘a bog‘lab, sovg‘a-salom to‘ldirib kelgan ipak xurjinni ko‘tarib ichkariga kirdi. Suyukli kuyavni yo‘lakda ko‘rgan Oftob oyim qilib turg‘an yumishini uloqtirib Otabekning oldig‘a yugurdi, jonini ming tasadduq qilib ko‘rishkach, kechikkani uchun nechog‘liq tashvishlar tortib va qandog‘ tushlar ko‘rganini labi-labiga tegmay so‘zlay ketdi.*

*Allaqayoqlarda yurgan To‘ybeka ham yugura kelib so‘rashmoqqa uyalsa ham, ammo «chiroylik yigit»ning qo‘lidag‘i xurjinni oldi.*

*Oftob oyim yugura-yugura qat-qat ko‘rpachalar solib, kuyavni o‘lturishka taklif qildi va qarshilashni har galgidan ham oshirib yubordi. Lekin Otabek bu qarshi olinishlarg‘a juda ishonchsiz qarar, bu kun bo‘lmasa ertaga «ota-ona orzusi» bilan bu siylanishlarni birdan o‘zgarib ketmagiga imon kelturib, qaysi yo‘sunda o‘lturib olg‘anini ham payqamas edi. Oftob oyimning bir qancha yaxshi tilaklar bilan bo‘lg‘an duosiga ham ishonchsiz qo‘l ko‘tardi va mash‘um «**orzu**»ning bundog‘ yaxshi duolarni ost-ust qilishini o‘yladi. Fotihadan keyin Oftob oyim tovoqni xurmaga, xurmani tovoqqa urushdirib kuyavga qatiq olib chiqdi va Otabekning ichmaganiga ham qo‘ymay «ichingiz, yo‘l g‘uborini oladir» deb qistay boshladi. So‘ngra To‘ybekani choy qaynatishg‘a buyurib o‘zi kuyavi bilan so‘rashdi:*

— *Otangiz, onangiz salomatlarmi?” (A.Qodiriy.O‘tkan kunlar.)*

Ota-onasining orzusi Otabek uchun aks ma‘noda tushuniladi. “Kishi intiladigan ezgu umid” ma‘nosidagi “ezgu” semasigina *orzu* so‘zining ushbu matndagi ma‘nosiga zid. Zero, roman voqeligi bilan tanishish jarayonida o‘quvchi bu orzuning keltirib chiqargan oqibatlari unda “yovuz” semasi mavjudligi va u kuchayib borganligini anglab yetadi. Ushbu matnda

*qarshilashni har galgidan ham oshirib yubordi, Otabek bu qarshi olinishlarga juda ishonchsiz qarar, siylanishlarni birdan o'zgarib ketmagiga imon kelturib, duosiga ham ishonchsiz qo'l ko'tardi, yaxshi duolarni ost-ust qilishini o'yladi kabi birikmalarni orzu so'zining ironiyaviy ma'nosini muayyanlashtiradi va kuchaytiradi.*

Ironiya butun boshli matn vositasida ifodalansa-da, uning tarkibida ironiyani kuchaytiruvchi ichki vositalar alohida ajralib turadi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasi yaxlit holda ironiyaviy asosdagi hikoyadir. Lekin uning tarkibida ushbu ironiyani reallashtiruvchi, kuchaytiruvchi qo'shimcha, so'z, ibora so'z birikmalari, gaplar mavjud. Ularning har biri ichki vositalar sifatida katta – matniy ironiya uchun tarkibiy vositalar hisoblanadi. Avvalo, matnda yozuvchining mulla Norqo'zining nutqini berishi qahramonning emas, balki adibning ironiyasidir: *"Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi – bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi – shu og'iz chayqashdan bahra oladi–da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o'g'li bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'litiqqa ura bering. Paranj hayoning pardasi-da!"* Agar mulla Norqo'zining nutqini o'z og'zidan eshitsangiz, uning ironiyaviy qimmatini yo'qoladi. U yozuvchining ma'lum bir maqsadni ko'zlab matnga kiritilishi natijasida, mulla Norqo'zining qilmishlari ochib tashlanishi orqali ironiyaviy mohiyat kasb etadi. Zero, mulla Norqo'zining yuqorida aytgan fikrlari uning hayotga juda yuzaki va nigilistik qarashi, aslida o'z turmush tarzida buning aksi yuz berayotganligini adib mahorat bilan tasvirlaydi. Aytilayotgan fikr va amal o'rtasidagi kontrast qarama-qarshilik yozuvchining kommunikativ niyati o'laroq ironiyaviy maqsad uchun xizmat qilgan. Yozuvchi bu ziddiyatni bir nuqtada jamlash asosida badiiy kolliziyani ta'minlagan. Abdulla Qahhor mulla Norqo'zi xatti-haraktlariga o'z munosabatini bildirish orqali hayotda uning fikrlariga mutlaqo teskari ishlar bo'layotganligini tavsiflab, o'quvchining ironiyaviy tasvir

usulini anglashiga ko‘mak beradi, ironiyaviy “axborot”ni muayyanlashtiradi: *“Ochiq xotin–qizlarning har bir harakatidan mulla –qizlarning har bir harakatidan mulla Norqo‘zi buzqlikka dalolat qiladigan talay belgilar topadi. “Etti qavat parda ichida o‘tiradigan” o‘z xotini esa bular qarshisida ko‘ziga farishta bo‘lib ko‘rinadi: namoz o‘qiydi, to‘pig‘idan yuqorisini ovrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi.”* Bunda *“yetti qavat parda ichida o‘tiradigan”*, namoz o‘qiydi, to‘pig‘idan yuqorisini ovrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi kabi ifodalar hikoya mazmunidan anglashiladigan “katta ironiya” uchun tashkil etuvchi “kichik ironiya” unsurlari bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchi ironiyani yanada kuchaytiradi: *Ehtimol, shundaydir, ammo mulla Norqo‘zining xotini pokdomon. Agar mulla Norqo‘zi o‘n yil yuziga kulib qaramasa, qopdan ko‘ylak, bo‘yradan lozim kiyishga majbur qilsa ham, pinagini buzmaydi. Har qanday xotin bilan ham inoq bo‘lavermaganining o‘zi diyonatli, pokdomon ekanining nishonasidir. Uning bitta-yu bitta o‘rtog‘i bor. Bu xotin to‘g‘risida mulla Norqo‘zi shunday fikrda: agar farishta ilgari o‘tgan bo‘lsa – shuning onasi, agar endi tug‘ilsa – shuning bolasi bo‘ladi, agar hozir yer yuzida bor bo‘lsa – shu xotinning o‘zi.* Bu fikrni ikki kishiga nisbat berish mumkin va shunda uning ironiyaviy mohiyati ikki yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Adibning bevosita o‘z fikrlari sifatida qabul qilinsa, u to‘g‘ridan–to‘g‘r ironiyadir. Agar uni adib mulla Norqo‘zi fikri sifatida berayotgan bo‘lsa, uning nutqi sifatida ironiyali nutq emas, balki to‘g‘ri ma‘noli fikrlardir. Shunday bo‘lsa–da, o‘quvchi uni adib tilidan ironiyaviy nutq sifatida qabul qiladi. Matndagi 9 gapdan 8 tasining har biri ironiyaviy mazmunli gaplardir. Bu jummlar katta ironiya uchun ichki ironiyaviy vositalar sifatida birlashadi va yaxlitlikni vujudga keltiradi.

Yuqorida aytilganidek, ironiyaning yuzaga chiqishi va uning uqilish darajasi, bunga muvofiq ravishda tegishli lisoniy va nolisoniy vositalar bilan ta‘minlanishi turlicha bo‘ladi. Masalan, satirik va yumoristik asarlarda ironiyaviy ma‘noning uqilishi ularning janriy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sodir bo‘ladi.

Abdulla Qahhorning “Uyqu istagi” hajviy hikoyasidagi ironiyaviy mazmun yuqoridagi “Mayiz emagan xotin” hikoyasidagi kabi hajviy asosda ochib beriladi. Hikoyaning ironiyaviy asosga qurilganligi uning mavzusidan uqiladi. Hikoyaning ikkinchi mavzusini Chexov hikoyasi kabi “Uyqu istagi” tarzida ham tushunish mumkin. Adib *adabiyot muallimi* atamasini *uyqu istagi* atamasi bilan qarama-qarshi qo‘yish asosida muayyan poetik ifodaviylikka erishgan. Matnda mana shu ikki ifodani ajratish olish va ularni o‘zaro bog‘lash asosidagina ham ironiyaviy maqsadini ifodalay olish mumkin. Umuman olganda, hikoyaning qolgan qismi ana shu kontrastiv zidlik asosida uqilgan ironiyaviy ma’noni to‘ldirish, sharhlash, izohlash uchun xizmat qiladi.

Mavzu sifatida tanlangan adabiyot muallimi atov birligi qo‘shirnoq ichiga olinmagan. Bu, birinchidan, hikoyaning butunlay ironiyaviy asosda ekanligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, mazkur tinish belgisi o‘quvchi erkinligiga, uning fikr oqimining yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Ana shu ikki holat ironiyaning implitsit ifoda etilayotganligini ko‘rsatadi.

Ayrim lisoniy vositalarning okkazional qurshovlarda qo‘llanishi ham ironiyaviy mazmun ifodalash uchun xizmat qiladi. Quyidagi misolga murojaat qilaydik:

– *Buni ko‘rmaysanmi, – deb qo‘limdagi murvatlarni ko‘rsatdim. – Olmadek narsaga shuncha lash-lushni erinmasdan joylashganiga qara. Injenerlar ham ovsar ekan!*

*U “operatsiya” bo‘lgan karbyuratorga qaradi-da, hushtak chalib yubordi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari)

Bunda *operatsiya* so‘zi odamlarga nisbatan ishlatiladigan ma’nosi asosida ironiyaviy mazmun ifodalagan. Jonsiz narsaning, xususan, texnikaning odamga o‘xshatilishi, ayniqsa, uning ustida bajarilgan amaliyotning unga sira aloqasi bo‘lmagan jarrohlik amaliyotiga o‘xshatilishida ironiyaning beozor shakli kuzatiladi. Adib bunda ko‘zlagan kinoviy ma’no odamga ishlatiladigan *operatsiya* so‘zini texnikaga nisbatan qo‘llab, mazkur so‘zning uzual qo‘llanishiga zid okkazional bog‘lanishni vujudga keltirishi asosida hosil

bo'lgan. Zidlik bog'lanishda bo'lsa-da, uning umuman olganda mavjudligi ironiyaviy ma'noning hosil bo'lishidagi o'zak holat – “ziddiyatlarni birlashtirish” hodisasi amal qilayotganligini ko'rsatadi.

Ba'zan ironiyaviy ma'no asliy ma'no bilan bir jumlaning o'zida beriladi – yonma-yon qo'yilib, biri ikkinisining ma'nosini ochish uchun bir paytning “ko'maklashaveradi”:

“Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan do'st – shunchaki do'st.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida g'oyib bo'ladigan do'st – do'st emas.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida xiyonat qiladigan “do'st” - dushman.

Boshingda quyosh charaqlab turganida izingdan quvmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan do'st – haqiqiy do'st.”

Ironiyaviy va asliy ma'no zid ma'nolar ekan, demak, ularning ma'noviy mohiyatini ochishda darajalanish qatoridan ham foydalanish mumkin. Yuqoridagi misolda zidlanayotgan so'zlar ma'nolari asosida ironiyaviy ma'noning xususiyatini ochishda foydalanish mumkin.

Adib 4-xatboshida *do'st* va *dushman* so'zlarining ma'nolarini bir-birlari asosida va ularning ironiyaviy ma'nosiga ham tayanib izohlaydi. Bu darajalanishni so'zlarning matndan uzilgan sun'iy tartibi asosida quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

*shunchaki do'st – do'st emas – dushman – haqiqiy do'st*

Xatboshilarda ironiyaning turli darajalari ko'zga tashlanadi, biroq ularning faqat eng kuchli bo'yoqlisida tegishli tinish belgisi qo'yilgan. “Shunchaki do'st” *do'st* so'zining asl ma'nosiga ma'lum darajada zid bo'lsa, “do'st emas” ma'nosining zidligi undan bir daraja baland, “dushman” ma'nosida *do'st* so'ziga to'liq zid turadi. Har uchala qo'llanishda ham ironiyaviy ma'no mavjud, ularning kinoviy “kuchi” darajalanish qatorida, ma'nolarning o'zaro munosabatlarida ochiladi.

Ironiyaviy asosda turli ma'nolar voqelanadi. Xususan, evfemik va disfemik ma'nolarning ironiyaviy asoslilari ham talay. Abdulla Qodiriy asarlarida qo'llangan evfemik va disfemik ma'nolari birliklarni lisoniy, pragmatik nuqtayi nazardan o'rgangan tadqiqotchi X.Qodirova ironiyaviy asosli qator evfemik va disfemik ma'noli birliklarni tahlil qiladi. "*Valine'mat* so'zini Abdulla Qodiriy asarlarida ikki xil ma'noda uchratish mumkin: ironiyaviy evfemik ma'no va tabulashgan evfemik ma'no. Har ikki ma'no matnda, qurshov asosida yuzaga chiqadi: *Bas, siz bilan biz ishchi-dehqon xodimi bo'la turib, nega valine'matimizga oyog' xizmatini o'taymiz* ("Shallaqi", DB – 253)<sup>18</sup>. Bu erda *Stalin* nomini almashtiruvchi mazkur ifoda uslubiy evfemizm sifatida hurmat munosabatini yuzaga keltirgan desak, to'g'ri bo'lmaydi. Bu so'z ironiya asosidagi evfemizm sifatida qaralishga loyiq.

Quyidagi jumlada birlik o'z ma'nosida yuzaga chiqqan va evfemik "ohangdan" xolidek tasavvur uyg'otadi: *Qullaridan biri valine'matimga ikki kalima arzim bor, deydir* (MCH – 147)<sup>19</sup>. "Valine'mat"ning ismini tutishga istihola mavjudligi uning evfemikligini ko'rsatadi.

*Jannatmakon* so'ziga ham Amir Umarxon shaxsini ifodalash uchun evfemik ma'no yuklangan: – *Siz "jannatmakon"ni ko'rganmisiz?* ("1819 yil yodgori", DB – 410)<sup>20</sup>.

Ma'lumki, umumiste'mol qiymati asosida *yosh* so'zi alohida qo'llanganda hech qanday bo'yoqdorlikka ega bo'lmaydi. Adib badiiy nutqida *komsomol* birligi ma'nosi uchun ko'chim sifatida ishlatilgan bu ifoda ironiya usulida evfemik mohiyat kasb etgan: – *Boshlariga soch qo'yg'an, otlarini yosh qo'yg'an, fahsh<sup>21</sup> deganni fosh qilg'an, yana otini "yosh" qo'yg'an — dumsizlarimizga<sup>22</sup> salo-o-om!* ("Salomnoma", DB – 142)<sup>23</sup>.

---

<sup>18</sup>. ACCORDING TO THE IMMUNOLOGICAL PARAMETERS OF PEOPLE WITH FAMILY ... Belyakova (2006), D.B. Demin (2006) and R.N. ... **Shallaqi**)In both cases,.

<sup>19</sup>. 10–12 лет, 119 - **147** ... **MCH** - среднее содержание гемоглобина в эритроците. ... -нормохромные

<sup>20</sup>. "1819 yil yodgori", DB – 410.

<sup>21</sup>Қинғир, нотўғри.

<sup>22</sup>Қалта кийинган.

<sup>23</sup>Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1980, - B. 360.

Bulardan tashqari, “*katta*” (hokimiyat kishisi) birligi ham siyosiy shaxslar qatorini kengaytiruvchi evfemik vosita sifatida adib ijodida o‘z aksini topadi: *Bu erda Rahimberdi Xudoyberdiev ismlik bedanaboz, Nuriddin Zokirov kabi muttahaam, Berkin Azimov, Karim Abdurahmonov singari bezori va Vali Usmonov kabilar mavze’ning «katta»lari bo’lib olib, xohlaganlaricha bo’lmag’urliklarni qilib keldilar.* («Qo‘rqan oldin musht ko‘tarar», DB – 412)<sup>24</sup>. Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida kinoyaviy asosdagi evfemik va disfemik birliklar talay bo‘lib, ular davr illatlarini fosh qilishda til va madaniyat mushtarakligini o‘zida aks ettirgan muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. “Ironiya – so‘zni teskari ma’noda ishlatish. Ironiyadagi so‘z hozirgi imloda, odatda, qo‘shirnoqda beriladi. Bu Abdulla Qodiriy mahoratini ochib beruvchi o‘ziga xos uslubdir. Juda ko‘p o‘rinlarda shaxsni anglatib kelgan «*bo’yoqlar*» (turmushga chiqmagan qizlar), «*yigit*» (nomard), «*qadrlik mehmon*» (kutilmaganda tug‘ilgan chaqaloq) evfemik ironiyaviy ifodalari teskari mazmunda qo‘llanilishi kuzatiladi. Inson sifatini bildirib kelgan «*vijdonli*» (vijdonsiz), «*kelishkan*» (beo‘xshov), «*husni Yusuf*» (xunuk) ifodalari asl muddaoni aytilishidan qutqargan ko‘chim sifatida adib asarlaridan o‘rin oladi. Shuningdek, intim munosabat bilan bog‘liq tushunchalarning ham evfemik ifodasidan ironiyaviy tarzda foydalanishida adibning mahorati namoyon bo‘ladi: «*izzat, hurmat*» (intim munosabat): *Shuning uchun anvoyi erkalikka, necha xil mukofotka, rang-barang «izzat, hurmatka» o‘rgangan ko‘ngli bu xaridorsizlik balosiga tuz sepkan yaradek achir edi.* (MCH – 67)<sup>25</sup>.

Ko‘rinadiki, ironiyaviy vositalar o‘zining murakkab tabiati bilan ajralib turadi. Ularda, bir tomondan, ma’noviy strukturaning shakllanishi va ifodalovchi vositalar uyg‘unlashuvida o‘ziga xoslikning mavjudligi, ikkinchi tomondan, turli ko‘chim usullari bilan bog‘lanishi, shuningdek, mazkur ko‘chim usullari asosida hosil bo‘lgan har xil hodisalar bilan bog‘lanib ketishi,

---

<sup>24</sup>Қодирова Х.Б. НДА –Б.52

<sup>25</sup>Қодирова Х. – Б. 70. Бу ҳақда маълумот олиш учун яна қаранг: В.П.Москвин. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка // <http://urss.ru/cgi-bin/db>.

shuningdek, o'z ma'noviy mohiyatlarini reallashtirishlari uchun turli muayyanlashtiruvchi vositalarga ehtiyoj sezishi, ayniqsa, matniy, kontekstual, situativ xoslanishlarga moyilligining kuchliligi bilan xarakterlanadi. Ularning tasnifi ma'lum darajada nisbiy bo'lishi bilan birga, ko'p hollarda ularning qaysi sathga oidligi haqidagi qarashlar ham nisbiy tabaitli bo'ladi. Bu ularning izchil tasnifini har doim nisbiy tushunishni zarur qilib qo'yadi.

## **2.2. Ironiya ifodalovchi vositalar tasnifi**

### **Ironiya ifodalovchi vositalarning formal tasnifi.**

1. Fonetik vositalar.

*1.1. Ohang.*

*1.2. Urg'u.*

2. Leksik vositalar.

*2.1. So'z.*

*2.2. Ibora.*

*2.3. Parafraza.*

3. Morfologik vositalar.

*3.1. Lug'aviy shakl yasovchi.*

*3.2. Sintaktik shakl yasovchi.*

4. Sintaktik vositalar.

*4.1. So'z birikmasi.*

*4.2. Gap.*

5. Matn.

*5.1. Mikromatn.*

*5.2. Makromatn.*

### **Ironiyaviy ma'noning qamroviga ko'ra tasnifi.**

1. Monosemantik ironiyaviy ma'no.

2. Polisemantik ironiyaviy ma'no.

### **Ironiyaviy ma'noning hosil bo'lish usuliga ko'ra tasnifi.**

1. Metaforik ironiyaviy ma'no.



2. Metonimik ironiyaviy ma'no.
3. Funksiyadoshlik asosidagi ironiyaviy ma'no.
4. Sinekdoxik kinoviy ma'no.

### **Ironiyaviy ma'noning muloqot me'yoriga munosabati asosidagi tasnifi.**

1. Evfemik ironiyaviy ma'no.
2. Disfemik ironiyaviy ma'no.

### **Ironiyaviy ma'noning intertekstual xususiyati asosidagi tasnifi.**

1. Boshqa matnga ishora qiluvchi ironiyaviy ma'no.
2. Boshqa matnga ishora qilmaydigan kinoviy ma'no.

### **Ironiyaning voqelanish doirasiga ko'ra tasnifi.**

1. Kontekstual ironiyaviy ma'no.
2. Situativ ironiyaviy ma'no.

## **Bob bo'yicha xulosalar**

Ironiyaviy ifodalovchi vositalar o'zining murakkab tabiati bilan ajralib turadi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) ma'noviy strukturaning shakllanishining o'ziga xosligi; b) shakl va ma'no uyg'unlashuvining o'ziga xos tabiati; v) turli ko'chim usullari bilan bog'lanishi; g) turli ko'chim usullari asosida hosil bo'lgan har xil hodisalar bilan bog'lanib ketishi; d) o'z ma'noviy mohiyatini voqelantirishda turli muayyanlashtiruvchi vositalarga ehtiyoj sezishi, ayniqsa; e) matniy, kontekstual, situativ xoslanishlarga moyilligining kuchliligi. Bu holat ironiyaviy ma'noning o'ziga xos murakkab semantik–pragmatik fenomen ekanligi bilan belgilanadi.

Ironiya ifodalovchi vositalar serqirra hodisa bo'lib, ular turli tomondan tasnif qilinadi. Ular formal asosda, shakliy xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi: 1) Fonetik vositalar: 1.1. Ohang. 1.2.Urg'u; 2) Leksik vositalar: 2.1.So'z; 2.2.Ibora; 2.3. Parafraza; 3) Morfologik vositalar: 3.1.Lug'aviy shakl yasovchi; 3.2.Sintaktik shakl yasovchi. 4.Sintaktik vositalar: 4.1.So'z birikmasi; 4.2.Gap; 5.Matn; 5.1.Mikromatn; 5.2.Makromatn.

Ironiyaviy ma'noning qamroviga ham keng bo'lib, u ikkiga ajraladi:

1) monosemantik ironiyaviy vosita; 2) polisemantik ironiyaviy ma'no.

Ironiyaviy ma'no hosil bo'lish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) metaforik ironiyaviy ma'no; 2) metonimik ironiyaviy ma'no;  
3) funksiyadoshlik asosidagi ironiyaviy ma'no; 4) sinekdoxik kinoyaviy ma'no.

Ironiyaviy ma'noning muloqot me'yoriga munosabati asosidagi tasnifi o'ziga xos bo'lib, bunga ko'ra u: 1) evfemik ironiyaviy ma'no; 2) disfemik ironiyaviy ma'no; 3) betaraf ironiyaviy ma'noga bo'linadi.

Ironiyaviy ma'noning intertekstual xususiyati asosidagi tasnifi ham uning substansial mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi: 1) boshqa matnga ishora qiluvchi ironiyaviy ma'no; 2) boshqa matnga ishora qilmaydigan kinoviy ma'no.

Ironiyaning voqelanish doirasiga ko'ra tasnifi uning:

1) kontekstual ironiyaviy ma'no;

2) situativ ironiyaviy ma'no kabi turlarini beradi.

### III BOB. IRONIYANING MATN HOSIL QILISH XUSUSIYATI

#### 3.1. Ironiyaning matndagi roli

Qadimdan shakllangan, rivojlanib kelayotgan hazil-mutoyiba turlaridan biri bu kinoyadir. Biroq ko'pchilik kinoya bilan ironiyani farqlay olishmaydi. Ironiya bu jumlaning kulgili qilish yoki so'zlarning zid ma'nolarini yuzaga chiqaruvchi kuchli vosita hisoblanadi. (Chekishni tashlashdan oson narsa yo'q). Ironiya bu tinglovchini o'sha jarayonga kirishtirish uchun ham qo'llanadi (Shifokorlar uning hayoti uchun kurashdilar, ammo u omon qoldi).

Kinoya – masxara qilish maqsadida so'z yoki iborani qarama-qarshi ma'noda ishlatish bo'lsa, ironiya – bu boshqalarning ustidan kulish uchun emas, balki boshqalarni kuldirishni maqsad qiladi. Rus yozuvchisi I.A.Krilov ironiya ilmini mukammal o'zlashtirgan. "Ironiyani masxara qilish emas, balki (axloqiy ahamiyat ham kasb etishi mumkin) suhbatdoshiga saboq berish bo'lishi ham mumkin"<sup>26</sup>, - deydi.

Hazil janriga munosabat ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchisi, istehzo qobiliyati faqat yuqori ruhga xos bo'ladi. Ikkinchisi, ayrim toifadagi insonlar dunyoga bo'lgan dushmanligi, takabburligi va o'zlarini yashirishlari uchun ishlatadi. O'zbek adabiyotida ham o'tkir hajv ustalarini ko'plab uchratish mumkin. Hajviy asarlarning barchasida deyarli maqsad bitta, ya'ni jamiyatdagi ba'zi toifadagi kishilarning illatlarini yengil yoki ayovsiz tanqid qilishdir. Bu esa yumor yoki satira usuli deb ataladi. Ironiyalarning asarda qo'llanilishi matn salmog'ini oshiradi, yozuvchining aytmoqchi bo'lgan fikrini kitobxonga tez yetkazib beradi. O'zbek mumtoz adabiyotida Zavqiy, Gulxaniy, Maxmur, Turdi Farog'iy kabi ijodkorlar, XX asrda Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Sami Abduqahhor, Yamin Qurbon, Muhtor Xudoyqulov asarlarida, zamonaviy adabiyotimizda esa Said Ahmad, Abdulla Qahhor, Anvar Obidjon ijodida o'ziga xos kulgili parchalar, ironiyalarni uchratamiz. Nuriddin Egamovning "@”ni “chuvalchang” deydiganlar va dunyoga “www”

---

<sup>26</sup> Kochetkova N.D. Krilovning satirik nasri // Ivan Andriyovich Krilov. Ijodkorlik muammolari. L., 1975. Z. 81.

“panjara”sidan qaraydiganlar”, “Lolazor” yoxud “Diktabt-jellenj” o‘tkazamizmi? Erkin A‘zamning “Kechirasiz, o‘rtoq muallim” asarida ironik mazmun ifodalash usullari va tahlillari ajoyib yoritib berilgan.

Quyida ushbu asarlarning ba‘zilarini tahlil qilib, matndagi rolini ko‘rib chiqamiz.

### **Go‘sharning zarari haqida (hajviya)**

Hurmatli o‘rtoq gaziya direktori!

Gaziyatangizning sakkizinchi sahifasida bosilgan fan kandidoti Nayim Karimupning shig‘riy qorxatini o‘qidi-mu tepa sochim tik bo‘lib ketdi.

Ko‘y go‘shning bir kilosi oltmish so‘m bo‘lib turgan paytda qorxatga balo bormi. O‘zingizga ma‘lumki, chorizm iskanjasida ingragan xalq oq poshshoning ablahligidan biri ikki bo‘lmay, kiyimi juldur bo‘lsa ham *ikki yuzi qip-qizil*, o‘zi *do‘mboqqina* bo‘lib insoniylik qiyofasini yo‘qotgan edi (*ikki yuzi qip-qizil* – bu teskari ma‘no ifodalovchi ironiya bo‘lib, ikki yuzi qizil emas, balki nochorlik, yo‘qchilikdan ranglari sarg‘ayib ketgan, o‘zi *do‘mboqqina* – *ochlikdan sillasi qurigan, oriq ma‘nosida*).

*Ulug‘* Oktyabr inqilobi bunday yaramas holga chek qo‘ydi. Sovet fuqarosining qomati novddek ingichka bo‘lishi shart ekanligini o‘zbeklar chor Rossiyasining chekka o‘lkasida yashashiga qaramay darrov tushundi. Xalqlar otasi Iosif Stalin *ulug‘* Lenindan *ilhomlanib*: «Yo‘qolsin boylar!» dedi. Boylar yo‘qoldi. G‘irt kambag‘allar qoldi. Mamlakatimiz kambag‘al, odamlarimiz kambag‘al, xazinamiz kambag‘al, ro‘zg‘orimiz kambag‘al bo‘lib qoldi. Xudo har kimning fe‘liga yarasha berar ekan. Yetmish to‘rt yildirki g‘irt *kambag‘allik gashkini surib* kelayapmiz. *Boy bo‘lishni aslo istamaymiz*. Boy bo‘lsak, albatta sinf sifatida tugatilib ketishimizni bilamiz. (*Ulug‘* – insonlarga qanchadan qancha tashvish olib kelgan kun, *ilhomlanib* – nafratlanib, *kambag‘allik gashkini surib* – yo‘qchilikdan qiynalib ketgan, azoblangan, *Boy bo‘lishni aslo istamaymiz* – boylikni xohlasada erisholmaydigan orzu).

Xorijdagi kapital iskanjasida faryod urayotgan yurtdoshlarimizga qarata: Ko‘ring, havas qiling, men sovet vatanining fuqarosiman, deb aytish huquqiga ega bo‘lga-nimiz olamshumul tarixiy voqea bo‘ldi. Rahmat!

Qorxatda go‘sh t to‘g‘risida ham ancha pasti-baland gaplar yozilibdi. Ochig‘ini aytib qo‘yayki, masalani go‘sh t hal qilmaydi. *Shu go‘sh t o‘lgirni yemasak o‘lib qolmasmiz*. Go‘sh t yemagani uchun o‘lsa Lev Tolstoy o‘lardi. Rabindranat Tagor o‘lardi va nihoyat olti bolani boqib, o‘zi go‘sh t yemagan Tolib Yo‘ldosh allaqachon, allaqachon ko‘karib chiqardi! (*Shu go‘sh t o‘lgirni yemasak o‘lib qolmasmiz* – ich-ichidan juda xohlayotgan, bir parcha go‘sh tga zor holat)

Tolstoylar, Tagorlar xudoning marhamati bilan eng uzoq umr ko‘rgan insonlardir. Tolib Yo‘ldosh ham inshoolloh, yuz yoshdan oshganlar qatoriga kirsa ajab emas.

Dohiy vasiyatlariga sodiq qolib, *go‘sh tni ko‘rsak teskari qarab o‘tib ketadigan bo‘ldik*. Natija yomon bo‘lmadi. Hammamiz yoppasiga *xipcha bel* bo‘lib oldik. (*go‘sh tni ko‘rsak teskari qarab o‘tib ketadigan bo‘ldik* – olishga imkoniyati bo‘lmaganidan yoniga yaqin borolmaslik, *xipcha bel* – oylab yaxshi ovqat tanavul qilmaganidan ozg‘in bo‘lib ketgan)

To‘g‘ri, bu borada prinsipsizlik qilgan paytlarimiz ham bo‘ldi. Ayniqsa, oltmishinchi, yetmishinchi yillarda Brejnev *xalq salomatligini o‘ylamay* magazinlarni oziq-ovqatga to‘ldirib tashladi. O‘sha yillarda uning ko‘kragi ordenga, bizning qursog‘imiz ovqatga to‘ldi. Ana shundan keyin semirishlar boshlandi. Qora qosh dohiymiz xalqni go‘sh dan siqmaganlarga etak-etak ordenlar sochdi, o‘zi ham hovuchlab oldi. Kostyumining orqa tomoniga ham orden takdi. (Old tomonida joy qolmagan edi.) (*xalq salomatligini o‘ylamay* – xalq uchun kuyib-pishgan shaxs edi). O‘sha kezlarni eslaganda shirin tush ko‘rgandek bo‘laman. Qayta qurish shabadasi esib, yayragan ko‘ngillarimiz yanada yayrab ketdi. *Biz qayta qurishni mehnatkashning qornidan boshladik*. Xalq sog‘lig‘iga shikast yetkazadigan jamiki go‘sh t-yog‘larni yo‘qotdik. Shuning sharofatidan devqomat aka-ukalarimiz «Bogatir» degan pahlavonlar

magaziniga bormay «Detskiy mir»dan kiyim oladigan bo'ldilar. (*Biz qayta qurishni mehnatkashning qornidan boshladik* – omma xalqni ochlikdan qiynash va shu orqali tejamkorlikka qadam bosish)

Siz, o'rtoq gaziya direktori, shig'riy qorxatni bosib chiqarish o'rniga *go'shtning inson salomatligiga qanchalik zarar ekanligi* to'g'risida mutaxassislardan intervyu olib bosishingiz kerak edi. Afsuski, bunday qilmadingiz. (*go'shtning inson salomatligiga qanchalik zarar ekanligi* – go'sht mahsulotida kaloriya ko'pligi va undan ko'proq iste'mol qilish kerakligi)

Qorxatda, qo'lga tushgan odam yigirma-o'ttiz kishiga osh damlab, somsa yopib, norin qorib, ziyofat qilishi kerak, deb aytilgan. Umarali Normatup bir kambag'al fan doktori, kamtargina professor, hayratda qoladigan darajada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, dorilfununning birovga zarari tegmaydigan kafedra mudiri va nihoyat Hamza mukofotining *jimgina laureatidir*. Oylik maoshini uchma-uch zo'rg'a eplashtiradigan, ro'zg'orga kelin ayaning maoshini, qizi va o'g'lining stipendiyasini qo'shmasa tirikchiligi tang ahvolga tushib qolishi mumkin bo'lgan nochor oila boshlig'idir. (*jimgina laureatidir* – mashhur mukofot a'zosi)

Ro'zg'orini amal-taqal qilib o'tkazayotgan bir professorinaga uyalmay-netmay qorxat yozishga Nayim Karimupni kim va nima majbur qildi? Normatup qo'li ochiq, mard odam. Qorxatda aytilgan jami taomlarni birovdan qarz ko'tarib bo'lsa ham pishirishi mumkin. Lekin masalaning boshqa bir tomoni ham bor. Qorxat ziyofatiga o'rganganlar yomg'ir xat, shabnam xat, qirov xat, jala xat degan yangi-yangi odatlarni o'ylab chikarmasliklariga kim kafil bo'ladi?

O'rtoqlar, *Brejnevning xatosini takrorlamaylik. Go'sht yeyish kabi o'tmish sarqitlaridan qancha tez qutulsak, shuncha yaxshi.* (*Brejnevning xatosini takrorlamaylik* – o'sha davrdagi yaxshi kunlarga qaytish, *Go'sht yeyish kabi o'tmish sarqitlaridan qancha tez qutulsak, shuncha yaxshi* – g'o'sht mahsulotining ko'proq iste'mol qilinishini xalqqa targ'ib etish) O'zbekning nimasi ko'p, oshi ko'p. Tirikning ham, o'likning ham oshini yeydi. Nikohda osh, sunnatda osh, marhumning yigirmasida osh, yilida osh. *E, bunaqada kaddi-*

*qomatdan ajralib qolamiz-ku! (E, bunaqada kaddi-qomatdan ajralib qolamiz-ku – bor kuchimiz, sillamiz qurib tugaydi-ku)*

Biz bu sohada balet raqqosalaridan ibrat olishimiz zarur. Baletchilar bir oyda yetti-sakkiz kun ovqat yemay, qomatlarini asraydilar. Biz ham shunday qilsak bo‘lmasmikan? *Ovqatni qancha kam yesak, qayta qurishga shuncha ko‘p hissa qo‘shgan bo‘lamiz.*(qayta qurishni deb tugab toamom bo‘lish) *Yo‘qolsin qorxat! Yo‘qolsin yog‘li qo‘y go‘shiti! Yo‘qolsin qassob! Yo‘qolsin xo‘ppa semizlar!* (*Yo‘qolsin yog‘li qo‘y go‘shiti – xalq salomatligi uchun yog‘li go‘shlar ko‘paysin, Yo‘qolsin qassob – qassoblar va qassobxonalar ko‘paysin*)

Biz kamtar odamlarmiz. Bo‘lar-bo‘lmasga *maqtanavermaymiz*. Qandaydir bir mahbus qamoqxonada besh-olti kun ochlik e‘lon qilganini bir yil gaziytga yozishdi. Ammo biz yetmish to‘rt yildan beri e‘lon qilmasdan och yuribmiz. G‘iring deganimiz yo‘q-ku! Chunki o‘sha kunlari peshonamizga *kommunizmning porloq nuri* tushib turgandi. Kommunizmda iftor qilamiz, deb yetmish to‘rt yildan buyon tuz totmay ro‘za tutyapmiz. Bu bugungi avlodimizni kommunizmda yashashiga ishonganimizdandir. *Nurli dargohga xipchagina, kichkinagina bo‘lib kirib borsak qanday yaxshi. Rahmat!* (*maqtanavermaymiz – noliyvermaymiz, kommunizmning porloq nuri – kommunizmning qora kunlari, kaltagi boshga tushmoq, Nurli dargohga xipchagina, kichkinagina bo‘lib kirib borsak qanday yaxshi. Rahmat!* – kelajakda bu siyosatning boshga qanday og‘ir kunlarni olib kelishi va mazlum xalq ahvoriga achinish)

*O‘zbek paxtakorlarining yana bir otasi (otamiz buncha ko‘p ekan?)*  
Nikita Xrushchev o‘n besh yilda kommunizm quramiz, deb aytgan edi. Shu gapni sovutmay, darrov kommunizmni qurib olsak bo‘lar ekan. Attang, endi kechikdik. O‘n besh yil nima degan gap. Ko‘z ochib yumguncha o‘tdi-ketdi. O‘sha paytda o‘n besh yilga kesilib ketganlar muddatlarini o‘tab, qamoqdan qaytib kelarkanlar bizdan, kommunizm tayyormi, deb so‘ramoqdalar. (*O‘zbek paxtakorlarining yana bir otasi – paxta siyosatini deb xalq boshida turib, odamlarni qiynagan, azoblagan boshliqlar*)

Andijonda qassoblarni kaltaklashipti. Juda to‘g‘ri ish bo‘pti. *Nurli dargoh sari dadil ketayotgan xalqimizni semirtiradigan* har qanday xatti-harakatni qoralaymiz. Yunon sarkardasi Iskandar Zulqarnaynmi, xizmat ko‘rsatgan artist Yodgor Sa‘diyevmi «Dasturxon tirikchiligimizning oynasidir» deb aytgan ekan. Ana shunday *tiniq oynamizga har xil yemishlarni qo‘yib uni xira, dog‘ qilmaylik.* ( *Nurli dargoh* – og‘ir kunlar, *dadil ketayotgan xalqimizni semirtiradigan* – nochorlikdan azoblangan xalqni yanada ochlik qiynog‘iga tushiradigan, *tiniq oynamizga har xil yemishlarni qo‘yib uni xira, dog‘ qilmaylik* – kamtarona dasturxonimizni kengaytirib, har xil noz-ne‘matlar bilan bezaylik) Jannatda ko‘rmoq bor, yemoq yo‘q, deydilar. Kommunizm ham xuddi shuning o‘zi. Faqat farqi shuki, unda ko‘rmoq ham, yemoq ham yo‘q. Bori ham talonga. Hurmatli Normatup, ig‘volarga uchib qorxat yozganlarga osh qilib bermang. Aks holda, kelajak avlod oldida, insoniyat oldida yuzi qora bo‘lib qolishingiz mumkin. Nayim Karimupdek kandidatlariga to fan doktori bo‘lmaguncha oramizda joy yo‘q. U «Qorxat» emas, yomonlikdan darak beruvchi «Qoraxat» yozganligini yana bir marta ta‘kidlab o‘taman.

Said Ahmadning yuqorida ko‘rib chiqilgan “Go‘shning zarari haqida”gi hajviy hikoyasida Turkiston aholisining sovet davridagi o‘g‘ir ahvoli, turmush tarzi teskari holatda ro‘yi rost yoritib berilgan. Asar boshdan oxirigacha ironiya, kinoya va ko‘chimlar asosida yozilgan. O‘sha davr kishisining yo‘qchilik sababli azoblanayotgan, ochlikdan sillasi qurigan holatlarda ham o‘z ahvolidan norozi ekanligini erkin bildira olmasligi, hamisha “biz doimo baxtlimiz” nazdida hayot kechirishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu matn mazmunini aniq yoritib berish uchun ironik vositalarning o‘rni katta. Agar yozuvchi hikoyadagi qahramonning nutqini to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z ma‘nosida berib o‘tganida asar badiiy jihatdan salmoqli bo‘lib chiqmasdi. Tilshunoslikda pragma degan tushuncha bo‘lib, bu aynan ironiya bilan aloqadorlikda badiiy maqsadni yuzaga chiqaradi. Go‘yoki xalqimizdagi “Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida hikoya mazmuni ochib berilgan.



### 3.2. Ironiyaning uslubiyatdagi roli (so‘zlashuv uslubida)

Ironiya bu yozilgan yoki aytilgan narsa boshqacha bir ma’nodan yoki kutilgan narsaga zid bo‘lgan adabiy texnikadir. Ironiyaning nutqda qo‘llashda ham bir nechta turlari mavjud. Masalan, og‘zaki istehzo odamning o‘z ma’nosiga teskari aytishi, ko‘pincha istehzoli ta’sir ko‘rsatishidir. Masalan, mijozning patnisni tushirib yuborgan ofitsiantga “Yaxshi ish” deyishi. Ushbu misollardan ko‘rib turganingizdek, og‘zaki ironiya ham o‘z kutganlarini puchga chiqarishni talab qiladi, lekin bu holda, kutilgan natija bo‘lmaganda yoki buning aksi sodir bo‘lganda namoyon bo‘ladi.

Vaziyat ironiyasi ba’zan voqealarning ironiyasi ham deb ataladi. Natija fojiali yoki kulgili bo‘lishi mumkin, lekin har doim kutilmagan bo‘ladi.

Og‘zaki ironiyaga misollar ko‘rib chiqamiz:

- Odamlarga o‘zini ko‘z-ko‘z qiluvchi insonlarga nisbatan “Suprada kaltakdek uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tandır” ironiyasi ko‘p ishlatiladi.
- Bugun ingliz tili darsida “bilimdon” talabalar darsni qoyillatib qo‘ydi.
- Zarinaning “sevimli ustoz” Hulkar opa juda ajoyib she’rlar o‘qiydi.
- “Endi kasal bo‘lishga umuman haqqingiz yo‘q”. Chunki tibbiyot yo‘nalishida ikki yil onlayn o‘qigan talabalar o‘qishni bitiryapti. Kamiga orasida super-kontraktga kirganlar ham bor.
- Qo‘shiqchi va sportchilarning topayotgan pullarini ko‘rib, maktabdagi “eng kerakli fanlar” – musiqa va jismoniy tarbiya bo‘lganligiga ishonch hosil qildim.
- Agar kasallik bilan jang qilayotganingizda, rahmatli buvingiz kirib: “Kel, shokolad beraman” desa bormang.
- Singlimga uyga vazifalariga yordam berayotgan paytim o‘zimni xuddi ba’zi deputatlardek tutaman. Hech narsani tushunmasam ham, “aqli bashara”ni yoqib olaman.
- Agar bemor haqiqatdan ham yashashni xohlasa, “shifokorlar kuchsizdir”.
- Kecha matematika o‘qituvchimiz tomdan yiqilib oyog‘i singani uchun darsga kelmadi. Bu “xushxabar”dan bir zumda xona bo‘shadi-qoldi.

- Mendan 5 yil oldin katta qarz olgan do‘stimdan o‘tgan kun qarzimni so‘rasam, hali gaplashamiz dedi-yu, “meni yaxshi ko‘rganidan” qaytib eslamadi.

- Bo‘sh kinoteatrda kiring va “odamlar juda ko‘p-ku” deb so‘rang.

- Bo‘ron paytida “bizda go‘zal ob-havo” deb e‘lon qiling.

Og‘zaki nutqimiz ironiya, kinoya, piching, iboralar bilan juda boy. Ularni sanab oxiriga yetolmaymiz, yuqorida sizlarga ayrimlaridan namuna keltirdik. Muloqotda shunday ironiyalar bo‘ladiki, ba’zilar ularni bir eshitganda payqab bo‘lmaydi, asosan, bu kabi ironiyalarni o‘sha soha vakillari yaxshi tushunishadi. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:

- Nutq buzilishining nimasi ironiya?

R harfini talaffuz qila olmaslik sharti fanda “rotacism” deb ataladi.

- Suyuq qog‘oz ixtirochisining ironiyasi nimada?

Xatoni uchira olmagan uchun u kotiblik ishidan bo‘shatildi.

- Paxta tayoqchasining nimasi ironiya?

Odatda quloqlarning ichki qismini tozlash uchun sotib olinadigan tamponlar aniq ogohlantiruvchi qutilarda sotiladi: “Quloq kanaliga kiritmang”.

- O‘zbek dehqonining ironiyasi nimada?

Tonna-tonna poliz mahsulotlari hamda meva-sabzavotlar yetishtirib, xaridorlarga eng saralarini tortiq qilib, ammo o‘zlari esa sifati past mahsulotlarni iste‘mol qilishi ham bir ironiyadir. Yoki Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasida Alomat va Qo‘chqor akaning suhbatida ham og‘zaki ironiyani yaqqol kuzatishimiz mumkin.

ALOMAT. Yig‘laysiz... (Qo‘llarini uning boshi uzra harakatlantirib.)  
Yig‘laysiz... Chunki, juda ezilgansiz... Yuragin-gizga qil ham sig‘maydi... Ich-ichingizdan bir nima toshib kelyapti... Hech kimning rahmi kelmaydi, birov dardingizga sherik ham bo‘lmaydi... O‘z yog‘ingizga o‘zingiz qovurilib yashayapsiz... Aft-angoringizga bir qarang, qirqqa kirgan qir-chillama yigitsiz-u, ko‘rgan odam sizni ellikdan oshgan, deb o‘ylaydi. Qurib-qaqshab boryapsiz... Esingizni tanibsizki, tinmay mehnat qilasiz, lekin hech biringiz ikki bo‘lmaydi. Ro‘zg‘or, bola-chaqa tashvishi, deysiz, afsuski, bu tashvishlar-ning cheki yo‘q.

Ertalabdan-kechgacha chumoliday g‘imir-g‘imir qilasiz-u, rohatini ko‘rmaysiz. «Paxtakorman» deb ko‘kragin-gizga mushtlaysiz-u, ko‘rpangizga paxta topolmaysiz! Kiyib olgan kiyimingizni qarang, yengil sanoat yetishtirayotgan hamma brak mahsulot siz va sizga o‘xshaganlarga nasib qiladi. Manavi nima? Shu issiqda kim neylon ko‘ylak kiyadi? QO‘CHQOR. Magazinga kelgan ekan, arzongina deb... ALOMAT. O‘zingizga bir tashqaridan qarang, qaysi zamonda yashayapsiz? Kimga o‘xshaysiz? Oyog‘ingizga ilib olgan kalishingiz qaerdan chiqqan? Yangiyo‘ldanmi, Toshkentdanmi? QO‘CHQOR (oyog‘ini tortib). Kalishmas, patinka... ALOMAT. Bu dunyoga kelib nima ko‘rdingiz, Qo‘chqor aka? «Ikki marta Toshkentga borganman» deb maqtanasiz, odamlar «Oq dengizu Qora dengiz» qilib yurishibdi! «Ha endi, ular boshqacha odamlarda» deysiz. Qanaqa, boshqacha? Nimasi boshqacha? Nahotki, oddiygina insoniy g‘urur bo‘lmasa?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo‘ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz! QO‘CHQOR. Nima qipti, el qatori yashayapmiz... ALOMAT. Shunday deb o‘zingizni ovutasiz. Qadr-qimmat-chi? Men odam emasman, lekin shularni o‘ylayverib-o‘ylayverib, ichimdagi murvatlarim qizib ketyapti! Menchalik ham emasmisiz, Qo‘chqor aka?! Biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Birovga gapingiz o‘tadimi? «Shudgorni boshla» desa boshlayverasiz, «hali yer qurimagan, loy-ku» deyolmaysiz! To‘y-ma‘rakalarda poygakda o‘tirasiz! «Ulug‘larga» tayyorlangan dasturxonga yaqinlasholmaysiz! Joyingizni bilib o‘tirishga majbursiz, chunki «mehnatkash» degan mansab bilan to‘rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni haqoratlashi, tahqirlashi mumkin! Alam qilmaydimi? QO‘CHQOR. Ha endi, rahbar bo‘lganidan keyin koyiydi-da... ALOMAT. Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroqcha ko‘tarib o‘tganingizga xursand bo‘lib yuraverasiz! Majlislarda qo‘l ko‘tarishu chapak chalishni bilasiz, boshqa hech baloni hal qilmaysiz! Ko‘pincha o‘sha majlisda nima hal bo‘layotganini ham tushunmaysiz! QO‘CHQOR (ta’sirlanib). Gapingiz noto‘g‘ri, Alomatxon... «Hurmat taxtasi»da suratimiz turibdi... ALOMAT. Endi

bor umidingiz bolalaringizdan, ularni o‘qitib «katta odam» qilmoqchisiz. Lekin ularingizdan «katta odam» chiqmaydi. Qishin-yozin daladan beri kelmaydigan chalasavod bolalardan hech balo chiqmasligini bilasiz. Farzandlaringizning o‘zingizga o‘xshamasligini istaysiz, demak, o‘zingizning kimligingizni ham bilasiz! Aqlingiz yetadi! Lekin yana «ko‘pga kelgan to‘y» deb yuraverasiz! Axir, umr o‘tib ketyapti-ku, Qo‘chqor aka!

Yuqoridagi parcha to‘liq ironiya asosiga qurilgan bo‘lib, undagi asosiy fikr kulgi va hazil-mutoyiba orqali emas, balki bir inson misolida butun millatni, jamiyatni ashaddiy tanqid qilishga qaratilgan.

Og‘zaki isrehzoning keng tarqalgan shakli kinoya bo‘lib, bu yerda aytilgan va nazarda tutilgan narsa o‘rtasidagi farq. Ba’zi odamlar ironiyada noziklik yoki aql yo‘q deb o‘ylashsa-da, bu istehzo qilishning aqlli usuli. Kulgili tarzda yetkazib berishning ahamiyati katta. Bugungi kunda ko‘p odamlar yetishmayotgan urg‘uni qo‘shadilar. Bu esa fikr samaradorligini oshiradi va tildan buzg‘unchi foydalanish ironiyadan foydalanishning nozik va qiziqarli usuli bo‘lishi mumkin.

Ayolga o‘lik ohangda ayting, - Ishonchim komilki, tayyorlanishingiz ko‘p vaqt talab qilmaydi, u bezanishi uchun bir soat vaqt sarflagandan keyin kinoyali istehzoga misol bo‘ladi. Sarkazm istehzoning ko‘p shakllaridan ko‘ra qiyinroq bo‘lishi mumkin, chunki u haqorat kabi ovoz chiqarish qobiliyatiga ega. Ushbu misol shu fikrni ko‘rsatib beradi.

Og‘zaki ironiyada boshqa ritorik vositalardan ham foydalanadi, masalan, giperbola ( “Bu eng yaxshi partiya edi”) va kam baho (“Bu katta ish emas, faqat sizni o‘ldiradi”). Bular istehzo turlari bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ironiyani ifodalashda so‘zlovchining urg‘usi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu nozik usullar bilan yetarlicha tanish bo‘lish sizning tinglovchilaringiz istehzoli niyatingizni tushunishini anglatadi.

Yana bir xususiyatga e’tibor qaratish lozim: ironiya fikrlash va voqelik o‘rtasidagi munosabatni aktuallashtiradi. Uning uchun har qanday konsepsiya ironik payqagan va kashf etgan narsadan u yoki bu darajada ajralib turadigan

obyekt to'g'risidagi hukmdir. Soxtalikning subyektivligi(obyektivlik, haqiqat) istehzoli fikrlash uchun juda muhim, chunki har qanday konsepsiya unda tushuncha sifatida namoyon bo'ladi – bu konsepsiyada aks ettirilgan hodisaning mumkin bo'lgan talqinlaridan biri. Konseptual yondashuvning mavjudligi yoki yo'qligi, birinchi navbatda, istehzoli asarni istehzoli bo'lmaganidan farqlashni xohlaydiganlarni qiziqtirish kerak. Texnikaning rasmiy tomoniga emas, balki konseptual va mazmunlilikiga urg'u berish asarda ironiya mavjudligining ishonchli belgisidir.

Absurdistik usullarning butun bir qatoribayonotning shakli va mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlik ustida ham ishlaydi. Absurdning maqsadi o'z nazorati ostidagi matnda ma'no falokatini tashkil qilishdir. Absurd semantik bog'lanishlarni shunday deformatsiya qiladiki, belgi va ma'nolarning bir-biridan farq qiladigan bloklarini prinsipial jihatdan izchil fikrlash mexanizmiga birlashtirib bo'lmaydi. Ko'z o'ngimizda dunyo manzarasi parchalanib bormoqda. Shu sababli absurdning kulgili effekti, qoida tariqasida, hayrat va dahshat bilan aralashib, odamni atrofdagi makonda butunlay chalg'itganda qamrab oladi.

Rad etilgan hukmning noto'g'riligini ochib berish uchun istehzoda "Absurdga kirish" texnikasidan foydalanish odatiy holdir, lekin bu fikrning boshqacha, samaraliroq yo'nalishini chiqarish uchun amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, ironiya insoniyatning intellektual imkoniyatlarini global inkor etish bilan tavsiflanmaydi. Bu haqida olimlar shunday deydi: "Inkor bo'lish, ironiya – haqiqat emas, faqat unga olib boradigan yo'ldir".

Ironiya paradokslar ustida ishlaydi, bir xil belgini mazmunli dekodlashning turli tizimlarida qarama-qarshilik va ziddiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Ironiyaviy tasvir ongga kirishi mumkin bo'lgan makonning semantic ko'p o'lchovlilikini hissini keltirib chiqaradi. Biz labirint kabi belgining ma'nosini o'rganamiz va u bo'ylab aylanib yuramiz, bizni fikr yo'nalishini keskin o'zgartirishga majbur qiladigan paradokslarga duch kelamiz. Labirint bo'ylab aqliy kezishning istalgan nuqtasida ortiqcha ma'no ko'rinadi. Bu ongda

tasvirlanganlarning birin bir ma'lum talqini doirasida jamlashga imkon bermaydi, ya'ni g'oyalarning asosiy bir o'lchovli bo'lmaganligini hosil qiladi.

Mantiq va psixologiya bo'yicha mutaxassislar teskari fikrlash everistik fikrlashga o'xshash ekanligini ko'p ta'kidlaydilar. Ironiya allaqachon ma'lum bo'lgan shakllarda tasvirlash mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan narsalar o'rtasidagi chiziqdan samarali foydalanadi. U hozircha insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan (til belgilari kodlangan) dunyo chegarasidan tashqarida bo'lgan narsani onga ochiq qilish uchun abadiy intilishdadir.

O'ziga xoslik, hayrat va bir o'lchovli bo'lmagan fikr makoniga kirish qulayligi, aslida, kinoyali obrazning badiiy qimmatini keltirib chiqaradi. Har bir istehzoli rassom dunyoga o'ziga xos sovg'a bilan keladi. Mavzu va uslub bilan emas, balki taqlidchilar hamda so'zma-so'z izdoshlarga berilmaydigan maxsus qarash bilan. Epigonlar shakl elementlariga taqlid qilishga qodir, ironiya esa konseptual qarash, lingvistik qobiliyat va zukkolikni talab qiladi.

Estetik masofa – bu sodir bo'layotgan voqealarning ichidan emas, balki don ova hamdard tomoshabin pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, insonning voqelik hodisalariga intellektual va hissiy munosabati. Ironiyaviy holat obyektiv narsalarning ma'nosini emas, balki muloqot ishtirokchilari ongida ushbu ma'noga bo'lgan munosabatni uyg'unlashtiradi. Shaxsiy dunyoqarashda ironiyaning uyg'unlashtiruvchi roli juda muhim bo'lishi mumkin. Buni to'liq anglagan va to'laqonli foydalanib, yangi davr tilshunosligi yangi sifat – falsafiy dialogizmni mustahkamlaydi.

Ironiyaviy misollar faqat tirnoq ichida keltirish mumkin emas, masalan, quyidagi holatni yomon kinoya sifatida aytish mumkin:

*1-raqamli odam butun hayotini boshqargan sog'lom turmush tarzi hayot, to'g'ri ovqatlandi, na ichdi, na chekdi. №2 odam uning butunlay teskarisi edi: u chekdi, ichdi, yovvoyi hayot kechirdi. №1 odam, o'zining eng yaxshi davrida, o'pka saratoni bilan kasallangan. Va 2-raqamli odam etuk keksalikka qadar yashaydi.*

Ironiya usullaridan mohirona foydalanib, siz boshqa odamlar bilan muloqotda katta muvaffaqiyatlarga erishishingiz mumkin. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, muloqotda muntazam istehzo ishlatadigan odamlar, qoida tariqasida, favqulodda aqlga ega.

### **Bob bo'yicha xulosalar**

*Kinoya* – masxara qilish maqsadida soʻz yoki iborani qarama-qarshi maʼnoda ishlatish boʻlsa, *ironiya* – bu boshqalarning ustidan kulish uchun emas, balki boshqalarni kuldirishni maqsad qiladi. Oʻzbek adabiyotida ham oʻtkir hajv ustalarini koʻplab uchratish mumkin. Hajviy asarlarning barchasida deyarli maqsad bitta, yaʼni jamiyatdagi baʼzi toifadagi kishilarning illatlarini yengil yoki ayovsiz tanqid qilishdir. Bu esa yumor yoki satira usuli deb ataladi. Ironiyalarning asarda qoʻllanilishi matn salmogʻini oshiradi, yozuvchining aytmoqchi boʻlgan fikrini kitobxonga tez yetkazib beradi.

Tilshunoslikda pragma degan tushuncha boʻlib, bu aynan ironiya bilan aloqadorlikda badiiy maqsadni yuzaga chiqaradi. Goʻyoki xalqimizdagi “Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida hikoya mazmuni ochib berilgan.

Ironiya bu yozilgan yoki aytilgan narsa boshqacha bir maʼnoda yoki kutilgan narsaga zid boʻlgan adabiy texnikadir. Ironiyaning nutqda qoʻllashda ham bir nechta turlari mavjud. Masalan, ogʻzaki istehzo odamning oʻz maʼnosiga teskari aytishi, koʻpincha istehzoli taʼsir koʻrsatishidir. Vaziyat ironiyasi baʼzan voqealarning ironiyasi ham deb ataladi. Natija fojiali yoki kulgili boʻlishi mumkin, lekin har doim kutilmagan boʻladi. Muloqotda shunday ironiyalar boʻladiki, baʼzilar ularni bir eshitganda payqab boʻlmaydi, asosan, bu kabi ironiyalarni oʻsha soha vakillari yaxshi tushunishadi.

Ogʻzaki isrehzoning keng tarqalgan shakli kinoya boʻlib, bu yerda aytilgan va nazarda tutilgan narsa oʻrtasidagi farq. Baʼzi odamlar ironiyada noziklik yoki aql yoʻq deb oʻylashsa-da, bu istehzo qilishning aqlli usuli. Kulgili tarzda yetkazib berishning ahamiyati katta. Bugungi kunda koʻp odamlar yetishmayotgan urgʻuni qoʻshadilar. Bu esa fikr samaradorligini oshiradi va

tildan buzg‘unchi foydalanish ironiyadan foydalanishning nozik va qiziqarli usuli bo‘lishi mumkin.

Ironiya fikrlash va voqelik o‘rtasidagi munosabatni aktuallashtiradi. Uning uchun har qanday konsepsiya ironik payqagan va kashf etgan narsadan u yoki bu darajada ajralib turadigan obyekt to‘g‘risidagi hukmdir. Soxtalikning subyektivligi(obyektivlik, haqiqat) istehzoli fikrlash uchun juda muhim, chunki har qanday konsepsiya unda tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi – bu konsepsiyada aks ettirilgan hodisaning mumkin bo‘lgan talqinlaridan biri. Konseptual yondashuvning mavjudligi yoki yo‘qligi, birinchi navbatda, istehzoli asarni istehzoli bo‘lmaganidan farqlashni xohlaydiganlarni qiziqtirish kerak. Texnikaning rasmiy tomoniga emas, balki konseptual va mazmunliligiga urg‘u berish asarda ironiya mavjudligining ishonchli belgisidir. Uchinchi bobda ishning aynan shu tomonlari, ya’ni og‘zaki nutqda ironiyani to‘g‘ri qo‘llash va undan to‘g‘ri foydalanish usullari haqida to‘xtalib o‘tildi.



## XULOSA

Qanday qilib ironiyani o'rganish kerak? So'zlarni mohirona ayirboshlash qobiliyati hayotda foydali bo'lishi mumkin. Axir, istehzo insonning kamchiliklarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmaslik, balki uni va uning qadr-qimmatini saqlab qolish uchun so'z bilan o'ynash uchun madaniy ravishda "shoxlarni urish" uchun kerak. Nutqimizda ironiyani qo'llashda tinglovchinning yoshi, jinsi, mentaliteti, madaniy an'analarini hisobga olish juda muhimdir. Siz so'zlar bilan chiroyli o'ynashni o'rganishingiz mumkin, agar ko'p o'qish, estetik didni tarbiyalashni uddalagan bo'lsangiz. Buning uchun mahalliy va xorijiy klassikalarni tanlang, bu yordam beradi va o'ylaydi.

Sarkazm va kinoyani qanday o'rganishni qiziqtirganlarga hamma narsada kontrastni ko'rishni o'rganishni maslahat berish mumkin. Nima nazarda tutilganiga teskarisini aytish kerak. Eng yuqori daraja ironiya - giperboladan foydalanish, ya'ni bo'rttirish. "Sifat" so'zi "iste'mol tovarlari" so'zi bilan almashtirilsin. Belgilangan iboralarni yodlab oling va ularni nutqingizga kiriting: "oltin qo'llar", "peshonadagi etti bo'lak" va boshqalar.

Avvalo, bu munozara mavzusining asl ma'nosini susaytiradigan yoki aniq ma'nosini inkor etadigan ibora. Shunday qilib, muhokama mavzusi ko'rinadigan narsa emas degan tuyg'u bor. Ironiya badiiy ekspressivlikni oshirishga xizmat qiluvchi ritorik obrazli shaklni anglatadi.

U mentalitet, milliy xususiyatlar va ustuvorliklar ta'sirida turli yo'llar bilan shakllanadi. Shuning uchun u yoki bu jihatdan talqin qilmasdan turib, ironiya nima ekanligi haqida gapirib bo'lmaydi. Ironiyani yaxshi tushunish uchun insonda, avvalo, shu sohaga oid bilim, ko'nikma, dunyoqarash shakllangan bo'lishi, tilshunoslikning eng nozik tomonlaridan, ayniqsa, pragmani yaxshi tushunish kerak.

Ushbu uslubning oddiy modeli turli xil nutq burilishlaridir. Ular o'zlarining ekspressiv shakli bilan aytilganlarga qarama-qarshi emotsional ayblov ma'nosini berishga yordam beradi. Kinoyaviy misollar: adabiyotda o'z-o'zini kinoya ko'pincha dabdabani, voqeaning haddan tashqari tantanavorligini

olib tashlash uchun ishlatiladi. Bu sodir bo‘layotgan narsaga muallifning munosabatini etkazish imkonini beradi. Ironiy masxara sodir bo‘layotgan narsaga salbiy munosabatni yashirishga va uning uslubini unchalik aniq bo‘lmasligiga imkon beradi.

Badiiy matnning tasviriy vositalarini hosil qiluvchi leksik-frazeologik, paremik, sintaktik lisoniy vositalaridan turli shaklda o‘rinli foydalanish asarlardagi ironik mazmunning ustunligi muallifning davr va zamon, qahramonlar ichki dunyosi, fe‘l-atvori, voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatni ko‘rsatadi.

Dissertatsiya ishi o‘zbek tilshunosligida muloqot vaqtida ishtirokchilarning bir-birini to‘g‘ri tushunishi, fikrning ixcham, lo‘nda qilib yetkazib berilishi, va asosiysi, kommunikatsiya jarayonida har ikki tomonning fikrga bir xil to‘g‘ri yondashuvi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlaril to‘g‘risidagi qarori. Xalq so‘zi, 2017-yil, 21-aprel.
4. Ona tili fanidan Davlat ta‘lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
5. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (5-9 sinflar). – Toshkent. 2016.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi 2017- yil 7-fevraldagi farmoni.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили хақида»ги Қонуни //Ўзбекистоннинг янги Қонунлари: Тўплам. –Т., 1996. – Б. 20-30.
8. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.– Т.: Шарқ, 1998. – Б. 20-29.
9. *Mirziyoev SH.M.* Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
10. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 y., 11-son, 246-modda.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28-dekabr.

13. Prezident Shavkat Mirziyoevning “Sharq taronalari” XI xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi // Samarqand, - № 71 (2114), 2017 yil, 30 avgust, B.1.

14. *Karimov I.A.* Xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida. T.6. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998. – B. 410.

### **Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

#### ***O‘zbek tilidagi adabiyotlar***

1. Mengliyev B. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida // Ma’rifat. 173 b.

2. Hakimova M. Semasiologiya. O‘quv qo‘llanma. -. Toshkent, 2008. 79-b.

3. M. M. Mirtojdiyev. O‘zbek tili semasiologiyasi : ТОШКЕНТ «Mumtoz so‘z» 2010. -283 b.

4. M.Yo‘ldoshev va boshqalar . Matn lingvistikasi - o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020. - 188 b.

5. Saodat Sultonsaidova va boshqalar - O‘zbek tili stilistikasi. O‘quv qo‘llanma Toshkent – 2009. - 110 b.

6. Shomaqsudov A. va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. –T .: O‘qituvchi, 1983. –245 b.

7. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: Oliy o‘quv yurtlari va pedagogika institutlari talabalari uchun qo‘llanma. –Toshkent: O‘qituvchi, 1974. –123 b.

8. Ibragimova E. O‘zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. – Toshkent, NDA., 2001.

9. Abdurahmonov G‘., Mamajonov N. O‘zbek tili va adabiyoti.– Toshkent, «O‘zbekiston», 1985.

10. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.–Toshkent, «Fan», 1983, 88 b.

11. Abdupattoyev M. O‘zbek matnida supersintaktik butunliklar.–Toshkent, NDA., 1998.
12. Abdurahmonov Sh. O‘zbek badiiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar.–Toshkent, NDA., 1997. 24 b.
13. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, «O‘qituvchi», 2002.
13. Bozorov O. O‘zbek tilida gapning kommunikativ (aktiv) tuzilishi. – Farg‘ona, NDA., 2004.
14. Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san‘ati (badiiy mahorat va til haqida mulohazalar). –Toshkent, «Fan», 1962.
15. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish.– Toshkent, «Fan», 2005.
16. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari.– Toshkent, «Fan», 2005, 162 b. 75
17. Jamolxonov H. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma‘ruzalar matni).–Toshkent, TDPU., 2000. 1. Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent:A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
18. Yo‘ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari.–Samarqand, 1999.
19. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi.– Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
20. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san‘atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.
21. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish.–Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
22. Mamajanov A. Tekst lingvistikasi.–Toshkent, 1999.
23. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari.–Toshkent: Ma‘naviyat, 2002.
24. Almamatov T., Yadgarov Q. va Almamatova Sh. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.
25. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. – Pyed. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T.: 1997.
26. M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulov. O‘zbek tili. –T.: O‘qituvchi, 1970.

27. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. –T.: Fan. 2010.
28. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z. 2010.
29. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: Ilm Ziyo, 2010. – 223 b.
30. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild 1981.–386 b.

### ***Rus tilidagi adabiyotlar***

1. Бабанский Ю.К., Поташник М.М. Оптимизация педагогического процесса (в вопросах и ответах). – Киев: Радянська школа, 1984
2. Бухаловский Л. А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз, 1954
3. Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004.
4. Никитина Г.Г. Обучение младших школьников творческим работам на основе интеграции языковой и литературной подготовки. Составление рассказа по серии сюжетных картинок // Начальная школа. – 2007. – № 5
5. Ivanov M. Irony - postmodern smirk. 1881. 215 p.
6. Farxitdinova O.M. Ironiya: problema opredeleniya i rol v filosofskom poznanii: Avtoref. diss.... kand. filol. nauk. –Ekaterinburg, 2004. – 399 b.
7. Qarang: Filosofiya. Ensiklopedicheskiy slovar // pod.red. A.A.Ivana. –M.: Gardariki, 2004.

### **Internet saytlar:**

[www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

[www. Uza.uz](http://www. Uza.uz)

[www. Scientist.uz](http://www. Scientist.uz)

<http://www.edu.uz>

<http://www.uzneolcom.uz>

<http://www.referatlar.uz>

<http://www.google.uz>